



O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

Filolgiya fakulteti

Ingliz filologiyasi kafedrasini



Himoyaga ruxsat etildi

Kafedra mudiri _____ f.f.n.A.A.Haydarov

« _____ » _____ 2012 yil

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: “INGLIZ VA O`ZBEK TILLARIDAGI
FRAZELOGIZMLARDA POLISEMIYA”

Bajardi: 5220100 – Filologiya (ingliz) yo`lanishi kunduzgi
bo`lim 4 kurs 402 guruhi talabasi S.Nazarova

Ilmiy rahbar f.f.n.

M.I.Gadoyeva

Himoya sanasi

D.A.K.ning bahosi

« _____ » _____ 2012 yil

D.A.K.ning xulosasi

Buxoro - 2012

O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta
Maxsus Ta`lim Vazirligi

Buxoro Davlat universiteti

Filologiya fakul'teti

Ingliz filologiyasi kafedrası

Mutaxassialik: 5220100 – Filologiya yo`lanishi
“Tasdiqlayman”

Kafedra mudiri _____

«____»_____2011 й.

S.Nazarovaning bitiruv malakaviy ishi

T O P S H I R I Q

Bitiruv malakaviy ishi mavzusu: “Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarda
polisemiya”

1.Universitet bo`yicha buyruq bilan tasdiqlangan_____

2.Tugatilgan ishning talaba tomonidan topshirish muddati_____

3.Tushuntirish xatinig tarkibi_____

4.Bitiruv malakaviy ishiga tegishli savollar ro`yxati:-----

--

5.Grafik materialning miqdori (muhim chizmalarning ko`rsatkichi bilan)-----

6.Ilmiy maslahatchilar: Z.I.Rasulov

7.Ilmiy rahbar: M.I.Gadoyeva

8.Vazifani topshirish sanasi_____

9. Vazifa ijroga qabul qilindi_____

Talaba imzosi_____

Kafedra mudiri imzosi_____

Eslatma: Bu vazifa tugallangan ishgailova

Mavzu: Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologizmlarda polisemiya

Reja:

Mavzuning umumiy tavsifi

I-bob: Ingliz va o'zbek tili frazeologizmlarining lingvistik xususiyatlari.

I.1. Frazeologiya- tilshunoslikning sohasi sifatida.

I.2. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning turlari va o'ziga xos xususiyatlari.

I.3. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarning ifodalanish usullari.

II-bob: Ingliz va o'zbek tillarida frazeologizmlarda polisemiyaning ifodalanishi.

II.1. Ingliz va o'zbek tillarida polisemiya.

II.2. Ingliz va o'zbek tillari frazeologizmlarida polisemiyaning kuzatilishi.

II.3. Ingliz va o'zbek tillarida frazeologik polisemiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tipologik tahlili.

II.4. Ingliz va o'zbek tillaridagi polisemik xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologik birliklarning ilovasi.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Mavzuning umumiy tavsifi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Biz ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan bebaho boylikning vorislari sifatida ona tilimizni asrab-avaylashimiz, uni boyitish, nufuzini yanada oshirish ustida doimiy ishlashimiz zarur. Ayniqsa, fundamental fanlar, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, bank-moliya tizimi kabi o'ta muhim sohalarda ona tilimizning qo'llanish doirasini kengaytirish, etimologik va qiyosiy lug'atlar nashr etish, zarur atama va iboralar, tushuncha va kategoriyalarni ishlab chiqish, bir so'z bilan aytganda, o'zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama rivojlantirish - milliy o'zlikni, Vatan tuyg'usini anglashdek ezgu maqsadlarga xizmat qilishi shubhasiz" [1,87]. Bu esa tilshunosligimiz zimmasiga juda katta vazifalarni yuklaydi. Zeroki, "mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlarini tarixini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda" [2, 132].

Vatanimiz fani, madaniyati, iqtisodiyoti erishgan va qo'lga kiritayotgan yutuqlarni olamga o'z tafakkur tarzimiz, o'z ko'z-u qo'limiz bilan yetkazishga O'zbekiston rahbari Yurtboshimiz alohida ahamiyat beradilar. Oldingi davrlarda o'zbek xalqi qo'lga kiritgan yutuqlar, jumladan badiiy adabiyot namunalari xorijga uchinchi til orqali amalga oshirilishini tanqid qilib, Prezidentimiz: "endilikda adabiyotimizning eng yetuk asarlarini bevosita ona tilimizdan g'arb va sharq tillariga tarjima qilishga qaratilgan ishlarni kuchaytirishimiz zarur. Buning uchun xorijiy tillarni, adabiyot va badiiy tarjima san'atining nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama puxta egallagan mutaxassislarni tayyorlash" [1, 87] zarurligini alohida ta'kidlaydilar.

Malakaviy bitiruv ishi uchun tanlangan mavzu ayni shu vazifa bilan bog'liqdir, chunki ona tilimizdan xorijiy tilga, boshqa tildan o'z tilimizga tarjimani tilda frazeologizmlarning tabiatini, ulardagi ma'no va badiiyat nozikliklarini his etmasdan, ularni bir tildan ikkinchi tilga oshirish mumkin emas. Buni esa frazeologizmlarda ko'pma'nolilik, ma'lum bir tildagi matn va nutqiy sharoitda qay

bir ma'noning voqealanganligi, ayni shu mazmun va ifodani o'zga tilda qay bir vosita aniq va badiiy- ham asliyat maqsadiga, ham yangi o'quvchi ruhiyatiga muvofiq bo'la olishini bilish zarur. Bu esa xorijiy, jumladan ingliz tili va o'zbek tili frazeologizmlarning har tomonlama qiyosiy-tipologik tahlilini talab qiladi va malakaviy bitiruv ishi uchun tanlangan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari:

Ingliz va O'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning turlari, ularning lingvistik xususiyatlari va ifodalanish o'rganish hamda ochib berish maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- Shuningdek, ingliz va o'zbek tillarida polisemiyaning kuzatilishini o'rganish;
- Ingliz va O'zbek tillaridagi frazeologizmlarda polisemiyaning kuzatilishini o'rganish hamda ochib berish;
- Ingliz va O'zbek tillaridagi frazeologik polisemiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgangan holda ularning qiyosiy –tipologik tahlilini amalgam oshirish;

Bitiruv malakaviy ishning o'rganilish darajasi: Ingliz va O'zbek tillarining frazeologik tarkibi ko'pgina olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Xususan O'zbek frazeologiyasi rivoji va tadqiqiga Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, B.Yo'ldoshev, I.Qo'chqortoyev kabi bir qator olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Ingliz frazeologiyasining rivojiga va tadqiqiga V.Vinogradov, A.Kunin, A.Shaxmatov, N.Shanskiy, N.Amosova kabi olim va olimalar o'zlarining buyuk hissalarini qo'shganlar.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi va tadqiq usullari: Borliqdagi narsa va hodisalarni bir-biriga bog'liq ekanligini e'tirof etuvchi dialektik falsafa ishning metodologik asosini tashkil etadi. Ishda xorijiy va o'zbek tilshunosligida shu sohada olib borilgan ilmiy ishlarga nazariy jihatdan tayanildi.

Ishni yozishda sinxron-tasviriy, qiyosiy va semantik-stilistik usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining obykti: Ushbu ishning obykti ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birlik hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining yangiligi va amaliy ahamiyati: Ushbu bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundaki, ushbu ishdan ingliz va o'zbek tillarida og'zaki nutqni boyitishda foydalanish mumkin. Shuningdek leksikologiya, tilshunoslikka kirish, qiyosiy tipologiya, tarjima nazariyasi kabi fanlarning seminar mashg'ulotlarini tayyorlashda foydalanish muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, ishdan ilmiy maqola, tezis, kurs ishlari yozishda foydalanish mumkin. Shuningdek, ishdan maktab, kollej va litsey o'qituvchilari dars mashg'ulotlarida foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishi mavzuning umumiy tavsifi, ikki bob, xulosa, adabiyotlardan ro'yxatidan iborat bo'lib, kompyuter yozuvida 55 sahifani tashkil etadi.

I –bob: Ingliz va O'zbek tili frazeologik birikmalarning lingvistik xususiyatlari.

I.1. Frazeologiya – tilshunoslikning sohasi sifatida.

Frazeologiya – tilshunoslikning kichik sohasi bo'lib, fraza – ibora, logos – ta'limot degan ma'nolarni anglatadi. Frazeologiya atamasi asosan ikki ma'noda ishlatiladi:

- 1) tilning frazeologik tarkibini o'rganuvchi tilshunoslik sohasi;
- 2) shu tilning frazeologizmi majmui.

Frazeologiyaning o'rganish predmeti frazeologizmning tabiati va substansional xususiyatlari hamda ularning nutqda amal qilish qonuniyatidir.

Ikki va undan ortiq so'zdan tarkib topgan, yaxlit bir ko'chma ma'no ifodalaydigan, ta'sirchanlikka ega bo'lgan va ma'nosi bir so'zga teng ma'nodagi so'zlar yig'indisi yoki gaplar yig'indisi **ibora** deyiladi.

Iboralar tilshunoslikning frazeologiya bo'limida o'rganiladi, shuning uchun ham iboralarni frazeologizmlar deb ham ataymiz.

Bundan tashqari tilshunoslikning frazeologiya bo'limi shu sohaning taraqqiyoti, frazeologiya sohasiga muhim hissa qo'shgan tilshunos olimlar, frazeologik ma'no, frazeologik polisemiya, qarama qarshi ma'noli iboralar, iboralar sinonimiyasi, frazeologik paronimiya va paraforma, iboralar omonimiyasi, iboralar variatsiyasi, frazeologizmlarning o'ziga xos grammatik xususiyatlari va boshqalar o'rganiladi.

Ma'lumki, tilshunoslikda frazeologiya uzoq yillar davomida leksikologiya tarkibida o'rganib kelingan. Chunki frazeologik birliklar tildagi so'zlarning ekvivalentlari hisoblanib, leksikologiya esa tilning lug'at sostavini tashkil qiluvchi so'zlar va ularning ekvivalentlarini o'rganuvchi disiplina deb ataladi. Keyingi yillarda frazeologiya tilning alohida disipline yoki mustaqil til bosqichi bo'lganligi bois, frazeologiya - tilshunoslikning mustaqil sohasi sifatida, leksikologiya bag'ridan XX-asrning 50-yillridan boshlab mustaqil bo'lim, yangi soha sifatida ajralib chiqdi.

Frazeologiyaning alohida lingvistik yo'nalish bo'lib shakllanishida, jumladan o'zbek frazeologiyasining dunyoga kelishida V.V.Vinogradovning muhim

xizmatlari bor. Chunki sobiq sho'rolar davrida mustamlaka xalqlari tillari frazeologiyasi shu olim ta'limoti asosida paydo bo'ldi.

Chet el tilshunosligida ba'zan frazeologiya leksika yoki stilistika tarkibiga kiritiladi. Ko'pincha esa frazeologiyaning mustaqil til disipline ekanligi G'arbiy Yevropa va Amerika tilshunoslari tomonidan tan olinmaydi [4, 117].

Shunga qaramay ingliz frazeologiya maktabi ko'pgina olimlar tomonidan katta qiziqishlar bilan o'rganildi. Jumladan, bu sohaning rivojiga akademik A.Shaxmatov, A.Yefimov, N.Shanskiy, A.Kunin, N.Amosova, V.Jukov kabi olimlar ayniqsa ingliz frazeologiya maktabi rivoji va taraqqiyotiga o'z hissalarini qo'shganlar.

O'zbek frazeologiyasining izchil ilmiy asosda tadqiq qilinishi Shavkat Rahmatullayev nomi bilan bog'liqdir. Olim bu sohaga bag'ishlagan bir qator tadqiqotlari bilan milliy frazeologiyamizning yaratilishiga asos soldi. Jumladan, olimning quyidagi tadqiqot ishlari ya'ni " O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati", "O'zbek tilining qisqacha frazeologik lug'ati", "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari", "Frazeologik birikmalarning asosiy ma'no turlari", "Osnovnie grammaticheskie osobennosti obraznix glagolnix frazeologicheskix yedinitsovremennogo uzbekskogo yazika" kabi ilmiy adabiyotlari bilan o'zbek frazeologiya maktabi rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

Shuningdek, Y.Pinxasov ham frazeologik birliklarni o'rganishda katta muvaffaqiyatlariga erishdi. Olimning "Фразеологические выражения в языке произведений Хамида Алимжана", "Hozirgi o'zbek adabiy tili" (leksikologiya va frazeologiya), "O'zbek tili frazeologiyasi haqida" kabi asarlari tilshunoslik xazinasidan o'rin olgan [4, 116].

O'zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B. Yo'ldoshev, Abdumurod va Abdug'ofur Mamatovlarning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. B. Yo'ldoshev frazeologizmlarning konnotativ ma'nolari, badiiy tasvir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini atroflicha yoritib berdi. Abdumurod Mamatov frazeologik norma muammosini ko'tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o'rtasidagi munosabatni ko'rsatib berdi. Abdug'ofir Mamatov

esa, o'zining qator asarlarida frazeologik shakllanish muammolarini o'rta qo'ydi va uning paydo bo'lish omillarini yoritib berdi. Frazeologik birliklarning muhim farqlovchi belgisi mazmuniy qayta shakllanish ekanligini ko'rsatdi.

Frazeologik birliklarni ilmiy tadqiq qilishda tilshunoslikda keng tarqalgan distributiv metoddan foydalanish mumkin. Frazeologik birliklarning nutqda ishlatilish xususiyatlarini distributiv metod yordamida o'rganilish orqali ularning struktural- semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Undan tashqari frazeologik birliklarni o'rganishda ularning semantik va struktural belgilarini tilning mazmun plani bilan uning ifoda plani munosabati borasida qaramoq zarur. Frazeologik birliklarning sostavini tekshirishda uning komponentlari o'rtasidagi birikish turlarini, birikuvchi so'zlarning tabiatini valentlik metodi asosida qaramoq zarur [4, 115].

I.2. Ingliz va O'zbek tillarida frazeologizmlarning turlari va o'ziga xos xususiyatlari.

Frazeologik birlik til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko'rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma'noviy tabaitga ega bo'lgan lisoniy birlik **frazeologik birlik** deyiladi: tepa sochi tikka bo'ldi, sirkasi suv ko'tarmaydi; to show the white feather, to play the first fiddle.

Frazeologik birlik ibora, frazeologizm, turg'un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi.

Frazeologik birliklarning eng asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1. Frazeologik birlikning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan bo'ladi.
2. Frazeologik birlik yaxlit bir lug'aviy ma'no ifodalaydi.
3. Frazeologik birlikning tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nolarini yo'qotgan bo'ladi.
4. Frazeologik birlik turg'un birikma sifatida erkin birikma bilan faqat omonimik holatda bo'ladi.
5. Frazeologik birlikni faqat yaxlitligicha almashtirish mumkin
6. Frazeologik birlik gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi.
7. Frazeologik birlikni boshqa tilga so'zma – so'z tarjima qilib bo'lmaydi, yaxlitligicha tarjima qilinadi.

Frazeologik birlik tashkil etuvchisiga ko'ra qo'shma leksema, so'z birikmasi va gapga o'xshaydi. Biroq ular ko'proq qo'shma leksema kabi til jamiyati ongida tayyor va barqaror holda yashaydi. Boshqacha aytganda, frazeologik birlik lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo'lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo'ladi. Demak frazeologik birikma nutq hodisasi emas, balki til hodisasi. Shuningdek, frazeologik birlik nominativ ma'no anglatadi, shunga ko'ra leksema bilan bir qatorga qo'yiladi, leksemadan yirik nominativ birlik deb yuritiladi.

Tilning frazeologik sostavi juda keng ma'noga va stilistik bo'yoqlarga ega. Frazeologik birliklar bilan so'zlarni butunlay ekvivalent sifatida qarash yaramaydi. Chunki, frazeologik birliklar doim ham so'zlarning o'rnini bosa olmaydi. Frazeologik birliklar hamda so'zlarning strukturasi va ma'nolarida juda ko'p farqlanish alomatlari mavjud bo'lib, ularning morfologik va sintaktik funksiyalari ham turlichadir. Tarkibiga ko'ra so'zlar yaxlit holda, frazeologik birliklar esa alohida holda gap va so'z birikmalari kabi hosil bo'ladi. Bu xususiyatlar ularning talaffuzi va yozilishida o'z aksini topgan.

Frazeologik birlik lug'aviy birlik bo'lganligidan u nutq jarayonida gap tarkibida bir mustaqil so'z kabi harakat qiladi- bir gap bo'lagi yoki kengaytiruvchi sifatida keladi: 1. Madamin bo'yniga qo'yilgan aybnomadan tamom *hovuridan tushdi*. 2. Stol yoniga kelguncha uning *boshi aylanib ketdi*; Several candidates are already *jockeying for position*. 3. *Qosh qo'yaman deb ko'z chiqaradigan* bunday hodisalar hali ham onda sonda ro'y berib turibdi; Talks between staff and management will resume after a two week *cooling off period*. 4. *Kovushini to'g'rilab qo'yish kerak*; *The sky is the limit*. 1- va 2- gaplarda frazeologik birliklar gap markazi- kesim mavqeida, 3-gapda so'z kengaytiruvchisi – aniqlovchi va 4-gapda butun bir egasiz gap vazifasida kelgan.

Frazeologik birlik tashqi ko'rinishi jihatidan so'z birikmasi yoki gap ko'rinishida bo'ladi. So'z birikmasi ko'rinishidagi frazeologik birlik: ko'ngli bo'sh, jig'iga tegmoq; heavy father, to take care va hokazo. Gap tipidagi frazeologik birlik "gap kengaytiruvchisi+ kesim" qolip mahsuli: istarasi issiq, kapalagi uchib ketdi; to let the cat out of the bag;

Ayrim leksik birliklar frazeologik birlikning tadrijiy taraqqiyoti mahsulidir: dardisar, toshbag'ir. Demak, leksema hosil bo'lish manbalaridan biri – frazeologik birlikdir.

Ma'no turlari jihatidan iboralar asosan 2 turga bo'linadi:

1. Nomlovchi iboralar. Bular ko'pchilikni tashkil qiladi. Masalan quyidagi gaplarda ishlatilgan iboralar 1- ibora narsaga xos belgining nomi (do'ppining tagidakkina- nisbatan juda kichik; dull as lead;), 2- ibora –

harakat holatning nomi (og'iz ko'pirtirmoq- ko'p maqtanib gapirmoq; loose as a goose;), 3- ibora harakatga xos belgining nomini (eshikdan kelmay teshikdan – shu zahotiyoc; like a dog with two tails;)

2. Ifodalovchi iboralar. Bular juda oz. Masalan quyidagi gapda ishlatilgan ibora voqelikni ifodalamaydi, balki munosabat ifodalaydi: Buni eshitib, azbaroyi xudo, tutaqib, isitmam chiqib ketdi. Your dad'll be all jacked up by now.

Frazeologik birliklar asosan belgi va harakat ifodalaydi. Demak, ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansub.

Fe'l turkumiga mansub frazeologik birliklar: me'dasiga tegmoq, holdan toymoq, og'ziga talqon solmoq; to be on the beam, to nose out;

Sifat turkumiga mansub frazeologik birliklar: ko'ngli bo'sh, dili siyoh; loose as a goose, dull as lead;

Ravish turkumiga mansub frazeologik birliklar: ipidan – ignasigacha, ikki dunyoda ham; in the soup, like a dog with two tails;

Shuningdek, ingliz tilida predlogli frazeologik birliklar ham mavjud: in the course of, on the stroke of. Bundan tashqari undov so'zli va gapli frazeologik birliklar ham uchraydi: “ Catch me!”, “ Well I never!”

So'z gaplarga mansub frazeologik birlik: turgan gap, shunga qaramay; the sky is the limit, I'm easy;

Frazeologik birliklar tilshunosligimizda muayyan so'z turkumi bo'yicha tasnif qilinmagan va grammatik xususiyati yetarli darajada o'rganilmagan.

Frazeologik birlik leksik birlik kabi qo'llanish darajasi nuqtaqi nazaridan ham tasnif qilinadi. Bunga ko'ra umumiste'mol frazeologik birliklari (holdan toymoq, ro'yobga chiqmoq; to kick the bucket, to agree like cats and dogs) va qo'llanilishi chegaralangan frazeologik birliklar farqlanadi. Qo'llanilishi chegaralangan frazeologik birlik qo'llanish davri (eskirgan va zamondosh) va doirasi (dialektal, ilmiy, badiiy so'zlashuv) bilan ham ma'lum tafovutlarga ega [30, 156].

— eskirgan frazeologik birliklar : alifni kaltak demoq, kallasini xam qilib; be born with a caul, moisten one's clay;

- dialektal frazeologik birliklar: alag'da bo'lmoq, halak bo'lmoq; to play the advantages over somebody, mend like sour ale in summer;
- ilmiy frazeologik birliklar: imkoniyatlar doirasi, chambarchas bog'lamoq; civil list, general ticket;
- badiiy frazeologik birliklar: boshida yong'oq chaqmoq, qildan qiyiq axtarmoq; the afternoon of life, strike while the iron is hot;
- so'zlashuv nutqi frazeologik birliklari: arpasini xom o'rmoq, boshi ochiq; make a long arm, to be on somebody's back;

Frazeologik birliklarning aksariyati badiiy va so'zlashuv nutqiga xos.

Frazeologik birlik ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialetik birligidan iborat. Frazeologik birlikning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazeologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologik birlik: *burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; every cloud has a silver lining*; denotativ ma'noga ega bo'lsa, *turgan gap, shunga qaramay; as a matter of fact*; kabi nomustaqil frazeologik birliklar faqat grammatik vazifa bajaradi.

Odatda, frazeologik birlikning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng bo'ladi. Biroq, hech qachon ular teng emas. Chunki, frazeologik birlik va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologik birlik ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida *yoqasini ushlamoq* frazeologik birligi bilan *hayron bo'lmoq*, yoki ingliz tilidagi *to be in the dumps* frazeologik birligi bilan *to feel depressed* leksemasining ma'nolarini qiyoslasak. Mazkur o'zbek tilidagi frazeologik birlik “kutilmagan, tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan o'ta darajada ta'sirlanib, taajublanmoq” bo'lsa, *hayron bo'lmoq* leksemasi “kutilmagan yoki tushunib bo'lmaydigan narsa yoki hodisadan ta'sirlanmoq” ma'nosiga ega. Shuningdek, ingliz tilidagi frazeologik birlik “kutilmagan voqeadan o'ta darajada tushkunlikka tushmoq” ma'nosiga ega bo'lsa, *to feel depressed* leksemasi esa “shunchaki oddiy hodisadan ham o'zini tushkun holda his qilmoq”

ma'nosiga ega. Har ikkala ma'noda ham kishi ichki ruhiy holati aks etgan. Biroq frazeologik birlik ma'nosida "o'ta darajada" va "so'zlashuv uslubiga xos, bo'yoqdor" ma'nolariga egaligi bilan "hayron bo'lmoq" leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologik birlikning ko'pincha ifoda semalarida obrazlilik, bo'yoqdorlik bo'rtib turadi.

Ko'rinadiki, frazeologik birlik va leksema bir narsa yoki hodisani atasada, ifoda bo'yoqlari bilan keskin farqlanib turadi.

Tilning frazeologik sostavi juda keng ma'noga va stilistik bo'yoqlarga ega. Frazeologik birliklar bilan so'zlarni butunlay ekvivalent sifatida qarash yaramaydi. Chunki, frazeologik birliklar doim ham so'zlarning o'rnini bosa olmaydi. Frazeologik birliklar hamda so'zlarning strukturasi va ma'nolarida juda ko'p farqlanish alomatlari mavjud bo'lib, ularning morfologik va sintaktik funksiyalari ham turlichadir. Tarkibiga ko'ra so'zlar yaxlit holda, frazeologik birliklar esa alohida holda gap va so'z birikmalari kabi hosil bo'ladi. Bu xususiyatlar ularning talaffuzi va yozilishida o'z aksini topgan.

Frazeologik birlik birdan ortiq mustaqil so'zdan tashkil topadi. Biroq, uning ma'nosi tashkil etuvchi ma'nolarining oddiy yig'indisi emas. Masalan, *qo'yniga qo'l solmoq* yoki ingliz tilidagi *to have a finger in every pie* frazeologik birligining ma'nosi *qo'yin, qo'l, solmoq*, yoki *to have, a finger, in, every, pie* so'zlari ma'nolari sintezi yoki qo'shiluvi emas. Frazeologik birlikning ma'nosi tashkil etuvchi so'z to'la yoki qisman ko'chma ma'noda ishlatilishi natijasida hosil bo'ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo'ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o'xshaydi. Natijada, qo'yniga qo'l solmoq erkin birikmasi o'zidan anglashilgan mazmunga o'xshash bo'lgan boshqa bir mazmunni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologik birlikka aylanadi. Yoki *to have a finger in every pie* frazeologik birligida ham xuddi shunday munosabatni ko'rishimiz mumkin.

Frazeologik birlik tarkibidagi ayrim so'zning ko'chma ma'noda boshqalarning o'z ma'nosida qo'llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, *aqlini yemoq, og'zi qulog'ida* yoki *jockey for position, hold down a job*

frazeologik birliklarida aql, og'iz yoki position, job so'zlari o'z ma'nosida yemoq, qulog'ida va jockey, hold down so'zlari ko'chma ma'noda.

Ba'zan harakat holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologik birlikka aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog'ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun barmog'ini tishlab qolmoq qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. *Tishini tishiga qo'ymoq, labiga uchuq toshmoq yoki to show one's teeth* kabilar shular jumlasidandir.

Ayrim frazeologik birliklar turli diniy aqida, tushuncha, rivoyat asosida ham shakllanadi. Masalan, *ko'z tegmoq, ko'zi uchmoq; devil's advocate, a voice crying out in the wilderness* kabilar shular jumlasidandir.

Frazeologik birliklar ifoda va mazmun planiga ega. Frazeologik birlik erkin bog'lanmadan o'z grammatik qurilishi bilan farqlanmasa ham, grammatik qurilishining mohiyati bilan farqlanadi. Frazeologik birlik har gal nutq jarayonining o'zida tashkil topmay, balki ungacha bir butun holga kelgan bo'ladi, til xotirasida yaxlitligicha kiritiladi. Masalan, **Hurmatjon Adolatxonga ko'z tikdi** gapida to'rt so'z shakldan tuzilgan bo'lsada, ammo uning tarkibida uch lug'aviy birlik qatnashgan: Hurmatjon, Adolatxon, ko'z tikmoq. 1- va 2- birliklar leksema 3-si esa frazeologik birlikdir. Xuddi shunday ingliz tilidagi **All their appeals for help fell on deaf ears** gapida ham all, their, appeals, for help birliklar leksema, fell on deaf ears esa frazeologik birlikdir. Bu frazeologik birliklar tarkibida qatnashgan leksemalar ham aslida ikki va to'rt lug'aviy birlik, ammo frazeologik birlik shu ikki va to'rt leksema asosida tashkil topgan alohida luga'viy birlikdir.

Frazeologik birlik qismlarida tartib erkin bog'lanmalardagi tartibdan farq qilmaydi. Ba'zi istisnolar poetik nutq yoki so'zlashuv nutqi sintaksisi hisobiga (*sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar dumiga yoki a fool's bolt is soon shot*) kelib chiqadi.

Keltirilgan misollardan ayonki, frazeologik birlikning ifoda plani deb uning tarkibidagi leksemalargina emas, balki frazeologik birlikning doimiy tarkibiy qismi sifatida qatnashuvi morfemalar ham qaralishi lozim. Chunki, bunday

morfemalar leksemalar qatori, frazeologik birlikning ichki grammatik qurilishiga mansub bo'ladi. Nutqda ishlatish munosabati bilan qo'shiladigan qismlargina frazeologik birlikning ifoda planiga mansub bo'lmaydi. Masalan, *shumliging o'zingning boshingga yetsin* gapida qatnashgan boshingga yetsin frazeologik birlikning ifoda plani deyilganda bosh, yetmoq leksemalari, shuningdek, -ga morfemasi tushunilishi lozim; bu frazeologik birlik tarkibida qatnashayotgan tuslovchi nutqda kesim vazifasida kelishi munosabati bilan qo'shiladi; demak bu frazeologik birlikning ifoda planiga kirmaydi.

Frazeologik birlik yirik til birligi bo'lib, kamida ikkita mustaqil so'zdan tarkib topadi. Shunga ko'ra, frazeologik birliklarning ifoda plani deb so'zlar, shular tarkibidagi til birliklari tushuniladi.

Frazeologik birliklarning ifoda plani deyilganda, birinchi navbatda ularning grammatik qurilishi tushuniladi. Hozirgi o'zbek tilida frazeologik birliklar grammatik qurilishining umumiy tavsifi quyidagicha:

- 1) Frazeologik birliklarda hozirgi o'zbek tilidagi sintaktik bog'lanishlarning barcha turlari o'z aksini topgan. Frazeologik birliklarning ko'pchilik qismi birikmaga teng qurilishli. Gapga teng qurilishlilari ham anchagina. Birikmaga teng, shuningdek, gapga teng qurilishli frazeologik birliklar, o'z navbatida xilma xil ko'rinishlarga ega.
- 2) Ayni bir frazeologik birlik ham birikmaga teng, ham gapga teng shaklda bo'la oladi. Bunday hodisa anchagina uchraydi va asosan frazeologik birlik tarkibidagi fe'l qismining nisbatini o'zgartirish bilan voqe bo'ladi. Masalan, *ko'nglini ko'tarmoq* – birikmaga teng qurilishli frazeologik birlik, *ko'ngli ko'tarildi* – shu frazeologik birlikning gapga teng qurilishli ko'rinishi; ammo ingliz tilida bunday hodisa uchramaydi chunki uning ma'nosi tubdan o'zgarib ketadi. *She took care of everything – great care was taken to keep children.*

Frazeologik birliklarni qayta tuzish bilan ham bir frazeologik birlik birikmaga va gapga teng shakllarga kiradi. Masalan, *ochiq ko'ngil* – birikmaga teng qurilishli frazeologik birlik, *ko'ngli ochiq* – shu frazeologik birlikning gapga teng qurilishli

ko'rinishi. Bunday holat ingliz tilida ham uchraydi. Masalan, *a stab in the back – to stab somebody in the back* kabilar kuzatiladi.

Birikmaga teng qurilishli frazeologik birliklarning kichik bir qismi, erkin birikmalardan farqli holda so'zshakllardan tarkib topgan deb qaraladi. Chunki ular tarkibidagi hokim qism ayni shu shakldagina namoyon bo'ladi, grammatik shakli o'zgarmaydi.

Birikmaga teng qurilishli fe'l frazeologik birliklar kontekstda kesim bo'lib keladi va shu vazifasiga mos holda mayl, zamon va shaxs-son shakllarini oladi, lekin shu asosda bunday frazeologik birlikni gapga teng qurilishli deb qarab bo'lmaydi. Chunki, bunday frazeologik birlik til birligi sifatida nutqqa kiritilmasdan avval kesimlik shakllariga ega bo'lmaydi. Masalan, *joniga tegmoq* frazeologik birligi birikmaga teng qurilishli bo'lib, kontekstdangina kesim kabi shakllanadi: *Jonimga tegdi bu xarxashalar, ketaman shaharga*. Xuddi shunday ingliz tilida ham *to let the cat out of the bag* frazeologik birligi ham shunday ahamiyat kasb etadi: *I've let the cat out of the bag already, Mr.Corthell, and I might as well tell the whole thing now*.

O'z ichida ergash gapli *yerning tagida ilon qimirlasa, bilmoq* kabi frazeologik birliklarni birikmaga teng qurilishli birliklar qatoriga kiritish to'g'ri. Chunki qo'shma gap ko'rinishli bunday frazeologik birlikning bir butun holda olingandagi grammatik mohiyati uning ikkinchi (bilmoq) qismiga ko'ra belgilanadi. Yuqoridagi kabi frazeologik birliklarda ergash gapdan tashqari qism gapga teng emas. Chunki, bu qismning o'z ichida ayrim so'zshakl bilan ifodalangan ega bo'lagi yo'q. Bunday frazeologik birliklarning fe'l qismi kesimlik formalarini nutqda oladi.

Frazeologik birliklarda ikki va undan ortiq leksema o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotgan holda, bir umumiy ma'no markaziga bo'ysunadi, frazeologik birlikdan yaxlitligicha anglashiladigan ma'noni gavdalandirish uchun xizmat qiladi. Frazeologik birlikdan anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi leksemalardan anglashiladigan ma'nolarning oddiy yig'indisi bo'lmay, umumlashma, ustama ma'no, shu bilan birga ko'chma ma'no sifatida gavdalanadi.

Masalan, *jonini jabborga bermoq* yoki *dust yourself down* frazeologik birliklari “bor kuchini safarbar qilgani holda faoliyat ko’rsatmoq” ma’nosini anglatadi. Bu ma’no jon, jabbor, bermoq yoki dust, yourself, down so’zlari anglatadigan ma’nolarning oddiy yig’indisi emas, balki ma’lum obrazga asoslanadigan umumlashma ko’chma ma’no.

Frazeologik birliklarning mazmun planida ikki hodisa ajratiladi: 1) lug’aviy ma’no, aniqrog’i frazeologik ma’no; 2) uslubiy baho.

Tarkibli morfemaning, leksemaning ma’nosi odatda uni tashkil qiluvchi til birliklarga xos ma’nolarning yig’indisi sifatida gavdalanadi, qismlar ma’nosi asosida butunning ma’nosi tushuniladi.

Frazeologik birlik tarkibli til birligi, lekin uning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig’indisiga teng bo’lmaydi. Frazeologik birliklarga xos ma’no tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga nisbatan maxraj ma’no, ustama ma’no sifatida gavdalanadi, bu ma’no tarkibidagi leksemalarning ma’nosiga suyanmasligi ham mumkin. Frazeologik birliklarning ma’nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma’nolarning oddiy yig’indisi bo’lmasligi, shular ustiga qurilgan yangi bir ma’no bo’lishi sababli, frazeologik birliklarda go’yo ifoda plani bilan mazmun plani orasida qandaydir uzilish sodir bo’ladi. Xususiy ma’nolar umumiy ma’noni to’g’ridan to’g’ri izohlab turmaydi. Shu sababli frazeologik birliklarda ifoda plani bilan mazmun plani orasidagi bog’lanish shartlilik kashf etadi. Bu yerda bittadan ortiq so’z yaxlitligicha ma’lum bir obraz asosida, ko’chirish yo’li bilan semantik taraqqiyotni boshdan kechiradi. Ma’lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ana shunday ustama ko’chma ma’noga **frazeologik ma’no** deyiladi.

Ingliz tilida frazeologik birliklardan nglashiladigan ma’no ikki turga ajratiladi:

- 1) lug’aviy ma’no (literal meaning)
- 2) ko’chma ma’no (figurative meaning)

Lug’aviy ma’no (literal meaning) frazeologik birlikning kitobdan yoki lug’atdan anglashiladigan asl ma’nosi hisoblanadi.

Ko'chma ma'no (figurative meaning) esa frazeologik birlikning asl ma'nosidan anglashiladigan ma'no bo'lmay, frazeologik birlikni o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'noda qo'llash natijasida paydo bo'ladi.

Masalan, *the dog ate my homework* frazeologik birligi dangasalik yoki o'z vaqtida qilinmagan uyga vazifa uchun yaxshi sabab ma'nosiga egadir, bu ma'no frazeologik birlikning lug'aviy ma'nosi (literal meaning) hisoblanadi. Uning ko'chma (figurative meaning) ma'nosi esa mag'lubiyat uchun bahona, be'manigarchilik kabi ma'nolarni anglatadi.

Shuningdek, frazeologik birliklarning voqelikka nisbat beriluvchi lug'aviy mazmuni (nimanidir nomlashi, ifodalashi) frazeologik ma'no deyiladi. Masalan, *tuyaning kallasiday; dead to the world* frazeologik birligi narsa yoki shaxsning sifat belgisini, *yurak- bag'ri qon bo'lib ketdi, to loose one's head* frazeologik birligi esa kishining holatini anglatadi: Qovunga qarang. Har biri *tuyaning kallasiday*. Juda saralangan;

I was *dead to the world* as soon as I hit the ground before my go on night watch.

Yurak bag'rim qon bo'lib ketdi, ertadan beri yolg'iz o'tiribman.

She must always have been cold, self-possessed woman, but it is just with people like that that nature at times plays strange tricks. I'm prepared to believe that she *lost her head completely*.

Frazeologik ma'no tarkibini semik tahlil qilish asosida ham ideografik semalar ajratiladi. Masalan, ta'bi xira frazeologik birligi sifatlarning ruhiy holat bildiruvchi leksik-semantik guruhiga mansub. Bu guruh sifatlarning lug'aviy ma'nosi tarkibida "kayfiyat", "emotsiyaning ijobiy-salbiyligi", "emotsiyaning kuchli-kuchsizligi" semalari ajratiladi. Ana shu ideografik semalar asosida yuqoridagi frazeologik birlikning ma'nosini "kayfiyati bir oz yomon holatda" deb ta'riflash mumkin.

Uslubiy baho ifodalashning leksemadagi va frazeologik birlikdagi mavqei farqli. Bunday baho leksemalarning ko'pida yaqol ifodalanib turmaydi, ba'zan esa bunday baho leksemani turlicha ma'no munosabatiga kiritish, turlicha qo'llash bilan hosil qilinadi. Frazeologik birliklarning ko'pida esa uslubiy baho uning

mazmun planida doimiy tarkibiy qism bo'lib qatnashadi, ba'zan frazeologik birlik ma'nosini butunlay qamrab olgandek, ko'mib yuborgandek bo'lib ko'rinadi [25, 125].

Frazeologik birliklardan yaxlitligicha anglashiladigan ma'no bilan uning tarkibidagi leksemalar anglatadigan ma'nolar orasidagi munosabat asosida frazeologik birliklarning ikki semantik turi farq qiladi:

- 1) frazeologik butunlik
- 2) frazeologik chatishma

Ma'nosi tarkibidagi leksemalariga xos ma'nolar asosida izohlanadigan, shu leksik ma'nolarning umumiy maxraji sifatida gavidalanadigan frazeologik birlik **frazeologik butunlik** deyiladi.

- 1) Turg'un ota uzoq bosh qashir, keyin birdan *yengin shimarar*. When the bell rang, he *did not open the gate*.
- 2) Shunday qilib, Tojiboyning raislik davri tamom bo'ldi, Oyimxon sovetning pechatini undan olib, ko'krak cho'ntagiga solib qo'ydi. Oyimxon *yeng shimarib ish boshladi*. The tremendous social and economic advance to which this prospect of peace *could not open the gates*.

Birinchi misoldagi *yeng shimarmoq; to open the gate*- erkin bog'lanma: uni tashkil etuvchi *yeng* va *shimarmoq*, *to open* va *gate* leksemalari o'z leksik ma'no mustaqilligini saqlagan holda bog'lanib kelgan. Ikkinchi misoldsagi *yeng shimarmoq* va *to open the gate*- turg'un bog'lanma. Chunki bu o'rinda *yeng* va *shimarmoq* yoki *to open* va *gate* leksemalari o'z leksik ma'no mustaqilligini nsaqlamaydi. Demak, ushbu frazeologik birlikning tarkibidagi leksemalarni o'z mustaqil leksik ma'nosida tushunib bo'lmaydi.

Ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydigan, bu leksemalarga xos ma'nolarni hisobga olmaydigan frazeologik birlikka **frazeologik chatishma** deyiladi: Hadeb to'ninigizni teskari kiyavermang! Bordiyu siz ham tisarilsangiz, sizdan ham qo'limni yuvib, qo'ltig'imga uraman-u, boshimni olib hayyo-hayt deb chiqib ketaman.

Frazeologik chatishmaga xos ma'no tarkibidagi leksemalarning ma'nosidan ajralib qoladi, hatto zid bo'ladi. Masalan, *oyog'ini qo'lga olib* frazeologik birligidan anglashiladigan ma'no tarkibidagi leksemalardan bevosita anglashiladigan ma'noga zid: oyoqni qo'lga olgandan keyin, jadallik u yoqda tursin, umuman, hech qanday harakat bo'lishi mumkin emas.

Frazeologik butunlik va frazeologik chatishma uchun umumiy belgi ularda semantik hamda grammatik sintezga intilishning mavjudligidir. Bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- 1) Tarkibida ikki va undan oriq leksema qatnashadi.
- 2) Yaxlit bir ma'no gavdalanadi.
- 3) Tarkibidagi leksemalar o'z leksik ma'no mustaqilligini yo'qotadi.
- 4) Erkin bog'lanma bilan faqat omonimik holatda bo'ladi.
- 5) Frazeologik birlikni faqat yaxlitligicha almashtirish mumkin.
- 6) Nutqda yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi.
- 7) Boshqa tilga yaxlitligicha tarjima qilinadi.

Frazeologik butunlik bilan frazeologik chatishma orasidagi farq – ulardagi umumiy belgining (semantik hamda grammatik sintezga intilishning) me'yorida. Buni quyidagi qiyoslardan bilib olish mumkin:

1.a. Frazeologik butunlikning ma'nosi tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga bog'liq, shu leksik ma'noning o'ziga xos sintezidan iborat bo'ladi.

1.b. Frazeologik chatishmaning ma'nosi tarkibidagi leksemalarning ma'nosiga bog'liq emas, bulardan kelib chiqmaydi.

2.a. Frazeologik butunlikning ma'nosini uning tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlash mumkin.

2.b. Frazeologik chatishmaning ma'nosi tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar asosida izohlanmaydi, va undan anglashiladigan ma'noni tushunishda qandaydir shartlilik mavjud bo'ladi.

3.a. Frazeologik butunlikning tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar, qisman bo'lsa-da, hisobga olinadi.

3.b. Frazeologik chatishma tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar hisobga olinmaydi.

4.a. Frazeologik butunlikning yaxlit ma'nosi fonida tarkibidagi leksemalarga xos ma'nolar ham sezilib turgani sababli bunday frazeologik birlikning ma'nosi ko'p qirrali, boy bo'ladi, anchagina murakkab holatda gavdalanadi; ichki obraz hayot bo'ladi.

4.b. Faqat frazeologik chatishmaning yaxlit ma'nosigina mavjud bo'ladi. Bu ma'noning gavdalanishida tarkibidagi leksemalarning ma'nosi qatnashmaydi; ichki obraz so'ngan bo'ladi. Shunga ko'ra frazeologik birlikning ma'nosi ancha sodda holatda gavdalanadi.

5.a. Ma'nosini o'z tarkibiga ko'ra izohlash imkoniyatining borligi bilan bunday frazeologik birlik yasama leksemalarga o'xshab ketadi.

5.b. Ma'nosini o'z tarkibiga ko'ra izohlash imkoniyatining yo'qligi bilan bunday frazeologik birlik tub leksemaning bosh ma'nosiga o'xshab ketadi.

So'zning struktura jihatdan yaxlitligi uning morfologik tarkibiga yana boshqa so'z yoki so'z birikmalarini ulash mumkin emasligida ko'rinadi. Frazeologik birliklar tarkibiga yana boshqa so'z yoki so'z birikmalarini kiritish mumkin bo'ladi. Frazeologik birliklarning har ikki semantik turi (frazeologik butunlik va frazeologik chatishma) ham o'z komponentlarining ma'no jihatdan ulanib ketishi, leksik

tarkibining ko'pgina o'rinlarda morfologik va sintaktik jihatdan birikuvining turg'unligi bilan izohlanadi. So'z birikmalari va gaplarning komponentlari esa, semantik jihatdan ulanishida erkinlikka ega. Shu tufayli frazeologik birliklar turg'un iboralar va so'z birikmalari hamda gaplar tarkibiga ko'ra erkin so'z birikmalari deb hisoblanadi. Frazeologik birliklarning ma'nolari kontekstda va nutq situatsiyasida kengroq ochiladi.

Ingliz tilida frazeologik birliklar quyidagi qoidalar asosida klassifikatsiya qilinadi:

- yasalish yo'llariga ko'ra;
- ma'no turlariga ko'ra;
- tuzilishiga ko'ra;

— sintaktik munosabat ifodalashi ya'ni qaysi gap bo'laklari bilan ifodalanishiga ko'ra;

Taniqli tilshunos Kunin ingliz tilidagi frazeologik birliklarni yasash yo'llariga ko'ra ikki yo'lga bo'ladi: birlamchi ya'ni asosiy va ikkilamchi frazeologik birliklarning yasash yo'llarini ko'rsatdi.

Frazeologik birliklarning asosiy yasash yo'li uning erkin so'z guruhi asosida yuz beradi.

1) Zamonaviy ingliz tilida frazeologik birliklarning eng ko'p tarqalgan yasash yo'li bu terminologik so'z guruhlaridagi ma'nolarning ko'chirilishi. Masalan, to link up o'zining asl ya'ni terminologik ma'nosida kosmik kemani birlashtirmoq, yig'moq manosini bersa ko'chma (transformed meaning) ma'nosida tanishmoq ma'nosini beradi.

2) Frazeologik birliklarning ko'pchilik qismi erkin so'z bog'lanmalarning ma'nosini ko'chirish orqali yasaladi: granny farm, Trojan horse;

3) Shuningdek, alliteratsiya yo'li bilan ham yasaladi: a sad sack, culture vulture;

4) Ekspressivlik asosida ya'ni bu ko'proq undov so'zlarga xos xususiyat hisoblanadi: "My aunt!", "hear, hear"

5) So'z shakllarini buzib yoki noto'g'ri talqin etish orqali: odds and ends frazeologik birligi odd ends so'z shaklini noto'g'ri talqin etish orqali yuzaga kelgan.

6) Arxaik so'zlarni qo'llash orqali ham frazeologik birliklarni yasash mumkin: "in brown study" frazeologik birligi "in gloomy meditation" ma'nosini anglatadi, qaysiki har ikkala frazeologik birliklar o'z arxaik ma'nolarini saqlashgan.

7) Gaplarni hayotning turli jabhalarida qo'llash bilan ham frazeologik birliklar vujudga kelishi mumkin. Masalan, "that cock won't fight" gapi sport bilan bog'liq ma'noda o'z manosida, erkin bog'lanma sifatida ishlatiladi, har kungi hayotimizda esa u ko'chma metaforik ma'noda qo'llanilib, frazeologik birlikka aylanadi.

8) Shuningdek, aql bovar qilmaydigan tasvirlarni ishlatish orqali ham frazeologik birliklar vujudga keladi: to have butterflies in the stomach, to have green fingers;

9) Taniqli yozuvchi va siyosatshunoslarning jumllarini ishlatish orqali ham frazeologik birliklar paydo bo'ladi: corridors of power (Snow), locust years (Churchil);

Frazeologik birliklarni yasashning ikkilamchi yo'li bir frazeologik birlikning boshqa frazeologik birlik asosida yasashini o'z ichiga oladi.

1) Konversiya usuli orqali: to vote with one's feet vote with one's feetga o'zgartirilgan.

2) Grammatik shaklini o'zgartirish orqali: make hay while the sun shines frazeologik birligi to make hay while the sun shines fe'l frazeologik birligiga aylantirilgan.

3) Analogiya ya'ni o'xshashlik asosida: curiosity killed the cat frazeologik birligi asosida care killed the cat frazeologik birligi vujudga kelgan.

4) Taqqoslash yoki qiyoslash orqali: "thin cat" – poor person frazeologik birligi "fat cat" bilan taqqoslagan holda yasalgan.

5) Maqol yoki hikmatli so'zlarni qisqartirish orqali: you can't make a silk purse out of a sow's ear maqolini o'rtasidan qisqartirish orqali "to make a sow's ear" frazeologik birligi yasalgan.

6) Boshqa tildagi frazeologik birliklarning kirib kelishi orqali: living space (German), to take the bull by the horns (Latin)

Ma'no turlariga ko'ra ingliz tilidagi frazeologik birliklarning turlarga ajratilishi akademik Vinogradovning rus tilidagi frazeologik birliklarni tasnifi bo'yicha qabul qilingan. Akademik frazeologik birliklarni ma'no turlariga ko'ra uch turga bo'lgan [29, 76]:

- 1) frazeologik birliklar (phraseological unities)
- 2) frazeologik chatishmalar (phraseological fusions or idioms)
- 3) frazeologik qo'shilmalar (phraseological combinations or collocations)

Frazeologik birliklar (phraseological unities) – ma'nosi tarkibidagi so'zlardan

anglashiladigan soʻz birliklari boʻlib, ular bir butun maʼnoni anglatadi va koʻchma maʼnoda qoʻllaniladi: *to play the first fiddle* (to be a leader in something), *old salt* (*experienced sailor*);

Frazeologik chatishmalar (phraseological fusions or idioms) – maʼnosi tarkibidagi soʻzlardan anglashilmaydigan va boshqa tilga soʻzma soʻz tarjima qilinmaydigan, shuningdek boshqa frazeologik birliklarga nisbatan kuchli frazeologik maʼnoga ega frazeologik birlik hisoblanadi: *on Shank's mare* (on foot), *at sixes and sevens* (in a mess).

Akademik Vinogradov idioma soʻzini frazeologik chatishmaga nisbatan sinonim sifatida ishlatadi. Har bir idiomaning boshida qandaydir aniq tasvir yotadi. Uning idioma yaʼni frazeologik chatishma boʻlib shakllanishi maʼlum bir voqelikka asoslanadi. Avvalo, idioma aniq ijtimoiy amaliyotda oʻz aksini topgan, maʼnolari tarkibidagi soʻzlardan anglashiladigan oddiygina frazeologik birlik sifatida namoyon boʻlgan. Keyinchalik shu aniq tasvir urf odat yoki ijtimoiy hodisa yoʻqolib borishi natijasida frazeologik birlik ham oʻz maʼno qiymatini yoʻqotib, u frazeologik birlik (phraseological unity) ga aylanadi. Aniq tasvir va frazeologik birlik orasidagi bogʻliqlik yoʻqolganda u frazeologik chatishma yoki idiomaga aylanadi. Bunday idiomalar zamonaviy ingliz tilida koʻp uchraydi: *to mark time*, *to get down to bedroom*, *to stick to one's guns*.

Shuningdek, xalqaro idiomalarga ham duch kelamizki, ular tarixiy dalillar, qadimiy mifologiya kabilar asosida vujudga kelgan: *Scape goat*, *Damacle's sword*, *Pandora's box*, *to pass the Rubison*, *apple of discord*.

Bundan tashqari, parallel idiomalar ham mavjud boʻlib, ular soʻzma soʻz tarjima qilish orqali paydo boʻlgan: *sub rose* – *under the rose*, *unter der rose*, *sons la rose*.

Frazeologik qoʻshilmalar (phraseological combinations or collocations) – maʼnosini tushunish oson boʻlib, ular mustaqil maʼnolarini saqlab qolgan va asl maʼnolari asosida birlashgan frazeologik birliklar hisoblanadi. Bu guruhga quyidagilar kiradi:

1) aniq g'oyalar bilan ishlatilgan turg'un bog'lanmalar: *to win victory, to attain succes, a delicate subject, a man of honour, to deliver a report, to render assistance;*

2) juft sinonimlar: *well and easy, really and truly, hear and soul;*

3) xorijiy so'zlar va turg'un bog'lanmalar: *vale-farewell, habeas corpus, bona fide, faux pas, bon voyage;*

Shunday qilib, ikki tildagi frazeologik birliklarning turlari va ular orasidagi farq ko'rsatildi.

Ingliz tilida frazeologik birliklar semantik tuzilishiga va struktura jihatdan professor Smirnitskiy turlarga ajratgan. U bir guruh frazeologik birliklarni bir ma'noviy qismlarga egalilarini ajratgan: *to give up, to pull out* kabi. Ammo bugungi kunga kelib bir qator rus tilshunoslar bu guruhni frazeologik birlik sifatida emas, balki erkin bog'lanma sifatida hisobga olishyapti [29, 75].

Ma'noviy qismlari ikki va undan ortiq bo'lgan frazeologik birliklar: *to take a back seat, stock and barrel* kabi.

Frazeologik birliklarning ingliz tilida qaysi gap bo'lagi sifatida kelishi o'zbek frazeologik birliklari bilan birgalikda berilgan va bu klassifikatsiya tilshunos olim I.V. Arnold tomonidan amalga oshirilgan.

I.3. Ingliz va O'zbek tillarida frazeologik birliklarning ifodalanish usullari.

Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularda frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya va paronimiya hodisalari borligi aniqlangan [4, 116].

Frazeologik sinonimiya – sinonimiya til birliklari orasidagi semantik mikrosistemalardan biri bo'lib, frazeologik birliklar orasida ham anchagina. Ikki frazeologik birlikni sinonim deyish uchun ular ayni bir ma'noni anglatishi shart. Busiz sinonimiya haqida gapirib bo'lmaydi. Ayni bir ma'nolilikni teng ma'nolilik deb tushunish yaramaydi. Har bir sinonim, shu sinonimiya uyasi uchun umumiy ma'no o'zanidan tashqari, o'ziga xos ma'no qirrasiga ega bo'ladi.

Sinonimlar odatda bir yoki bir necha jihatdan farqqa ega bo'ladi, shulardan biri ma'no qirrasidagi farq bo'lishi mumkin. Masalan, *yer bilan yakson bo'lmoq* – *yer bilan yakson qilmoq*, *kulini ko'kka sovurmoq* – *kuli ko'kka sovurildi* yoki *to be in a bad mood* va *to be down in the mouth* frazeologik birligiga sinonim: ayni bir ma'noni anglatadi. Bu sinonimlar, boshqa belgi- xususiyatlaridan qat'i nazar, ma'no qirrasida farq qiladi: ikkinchisida ma'no bir qadar kuchli.

Frazeologik sinonimlarni belgilashda ular asosida boshqa boshqa obrazning yotishi ham hisobga olinadi. Masalan, *bir og'iz*, *bir shingil*, *bir chimdim* sinonim frazeologik birliklari, asosida har xil obrazlar yotadi: so'zlash organi, bir bosh uzumning qismi, chimdib olinadigan miqdor.

Sinonim frazeologik birliklarni bir frazeologik birlikning variantlaridan ajratish kerak. Buning uchun frazeologik birliklarning so'z-komponentlariga diqqat qilish kerak. Leksik tarkibida ayni bir so'z-komponent qatnashmaydigan frazeologik birliklar larning sinonim ekani shubha tug'dirmaydi. Masalan, “*butun tafsiloti bilan, mayda-chuydasigacha*” ma'nosini anglatadigan *ipidan ignasigacha*, *miridan sirigacha*, *qilidan quyrug'igacha* frazeologik birligiga o'zaro sinonim bo'lib, ular tarkibida umumiy so'z-komponent yo'q [25, 125].

Sinonimiya – ma'no asosida belgilanadigan hodisa. Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklarda ibora bilan ibora orasida belgilanadi. Agar sinonimik munosabatda polisemantik frazeologik birlik qatnashsa, frazeologik birlikdan emas, balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqish lozim. Chunki

har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, monosemantik *tan olmoq* frazeologik birligiga polisemantik (uch ma'noli) *bo'yniga olmoq* frazeologik birligi birinchi ma'nosida sinonim bo'ladi. Bu uch ma'noli frazeologik birligining ikkinchi ma'nosiga sinonim yo'q, ammo uchinchi ma'nosiga zimmasiga olmoq frazeologik birligi birinchi ma'nosida sinonim. Shuningdek, ingliz tilidagi *to open gate* frazeologik birligiga polisemantik (olti ma'noli) *to give way* frazeologik birligi beshinchi ma'nosida sinonim.

Frazeologik antonimiya. Antonimiya til birliklari orasidagi semantik munosabat asosida belgilanadigan hodisalardan biri bo'lib, frazeologik birliklarda ham so'zlardagi darajada uchraydi. Antonimiyani belgilash, bir tomondan frazeologik birliklarning lug'aviy ma'nosini chuqurroq anglashga olib kelsa, ikkinchi tomondan, polisemiya bir iboraning ma'nolarini o'zaro farqlashga yordamlashadi, uchinchi tomondan, sinonimlarni belgilashda ham foyda keltiradi.

Barcha leksik komponentlari boshqa boshqa so'zlar bilan ifodalangan frazeologik birliklar orasidagi antonimiyani belgilash oson: *savol bermoq* va *javob qaytarmoq*; *to be in a high spirits* va *to be in a low spirits*; *yerga urmoq* va *ko'kka ko'tarmoq* kabi. Birinchi antonimlar tarkibidagi har ikki so'z - komponentlar, ikkinchi antonimlar tarkibidagi birinchi so'z komponentlar o'zaro antonim. Quyidagi antonim iboralar tarkibida qatnashgan birinchi leksik komponentlar - ayni bir so'zning o'zi, ikkinchi leksik komponentlar esa antonim so'zlar: *yuragi keng- yuragi tor*. Boshqa bir misol: *ko'ngli joyiga tushdi* va *yuragiga g'ulg'ula tushdi* yoki *at first sight* va *on second thought*. Bu antonim frazeologik birliklar tarkibidagi leksik komponentlarning uchinchisi ayni bir so'z, birinchisi o'zaro sinonim, ikkinchisi esa o'zaro ma'no munosabati hosil qilmaydi. Ko'rinadiki, antonim frazeologik birliklar tarkibidagi antonim so'z-komponentlar bu frazeologik birliklarning o'zaro antonim bo'lishida muhim rol o'ynaydi; ammo barcha antonim frazeologik birliklar tarkibida antonim so'z komponentlar qatnashmaydi. Antonimiya frazeologik birliklardan anglashiladigan lug'aviy ma'no asosida belgilanadi [26, 130].

Sinonimiyada bo'lganidek, antonimik munosabat ham polisemantik frazeologik birliklarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi. Polisemantik frazeologik birlikning bir ma'nosiga bir bo'lishi, boshqa bir ma'nosiga esa yo'q bo'lishi mumkin. Masalan, *savol bermoq* monosemantik frazeologik birligiga besh ma'noli *javob bermoq* iborasining birinchi ma'nosi antonim.

Frazeologik omonimiya. Til birliklari orasida shaklan teng kelish hodisasi – omonimiya - frazeologik birliklarda ham bor. Frazeologik omonimiya odatda ikki frazeologik birlik orasida voqe bo'ladi: qo'l ko'tarmoq I va qo'l ko'tarmoq II; call it a day I va call it a day II kabi. Bu yerda omonimiya ibora bilan ibora orasida voqe bo'ladi, keltirilgan frazeologik birliklar barcha muqobil shakllarida teng keladi: qo'l ko'tardim, qo'l ko'taradi yoki called it a day, had called it a day kabi. Shunga ko'ra bu frazeologik birliklarni omonimlar deyish mumkin.

Omonimik munosabatdagi frazeologik birliklarning leksik tarkibi ikki xil bo'ladi:

- 1) har ikki frazeologik birlik tarkibidagi bir component omonim bo'ladi, boshqa component esa ayni bir so'zning o'zi bo'ladi. Masalan, o'ng kelmoq I va o'ng kelmoq II frazeologik birligi tarkibidagi fe'l komponentlar ayni bir so'z bilan, ism komponentlar esa omonim so'zlar bilan; to make a getaway I va to make a getaway II frazeologik birligi tarkibidagi ism komponentlar ayni bir so'z bilan, fe'l komponentlar esa omonim so'zlar bilan so'zlar bilan ifodalangan.
- 2) Har ikki frazeologik birlik tarkibidagi barcha komponentlar ayni shu so'zlarning o'zi bo'ladi. Bunda ikki holat bor:
 - a) Frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlar har xil leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Masalan, dam bermoq I va dam bermoq II yoki to hold the keys frazeologik birliklar tarkibida fe'l komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan, ot komponentlar esa boshqa-boshqa leksik ma'nosi bilan qatnashgan.
 - b) Frazeologik birliklar tarkibidagi so'zlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashadi. Bunday omonimiyani izohlashda so'z-komponentlarga suyanib bo'lmaydi, frazeologik birliklar asosida yotgan voqelikka, shu voqelikdan olingan obrazga suyaniladi. Masalan, ichagi uzildi I va ichagi uzildi II frazeologik birliklari tarkibidagi so'z-komponentlar ayni bir leksik ma'nosi bilan qatnashgan, ammo bu

frazeologik birliklar asosida boshqa-boshqa obraz yotadi: birinchi frazeologik birlikda qattiq va uzluksiz kulganda ichaklar silkina silkina uzilib ketgudek bo'lishidan, ikkinchi frazeologik birlikda esa uzoq muddat ovqatlanmaslik natijasida ichaklarning torayib, ingichkalashib, uzilish darajasiga yetishidan obraz olingan.

Omonomlik asosan quyidagi holatlarda voqe bo'lmaydi:

1) frazeologik birlik tarkibida ko'chma ma'noda qatnashgan leksema bo'lganida: ko'ngli oq – oq ko'ngil, ko'zining paxtasi chiqdi – ko'zining paxtasini chiqar yoki lay it on a thick kabi;

2) frazeologik birlik asosida real voqelik yotmaydi, shu sababli xudi shunday erkin bog'lanma tuzilmaydi: bir yoqadan bosh chiqar, ko'ngliga qo'l sol, boshi ko'kka yetdi yoki make up for lost time, walk all over somebody.

Ifoda jihati teng frazeologik birliklar omofrazemalar deyiladi: boshiga ko'tar I (kuchli shovqin suron qil), boshiga ko'tar II (yuksak darajada izzat hurmat qil) yoki to make no bones about I (samimiy va to'g'ri bo'lmoq), to make no bones about II (hech qanday ruhiy e'tiqodga ega bo'lmaslik) kabi.

Omofrazemalar quyidagicha yuzaga keladi:

1. Frazeologik birlik ifoda jihatida tasodiran teng kelib qoladi. Bunda har bir frazeologik birlik asosida boshqa – boshqa obraz yotadi. Masalan, misi chiqdi I frazeologik birligi miskarlik bilan bog'lansa (Idish tovoq ilgari asosan misdan yasalar va usti sirlanar edi; siri ketsa misi chiqib, yaroqsiz holga kelar edi), misi chiqdi II frazeologik birligi esa misning rangiga bog'lanadi (Pechka qattiq yoqilsa, qizib mis rangiga kiradi).

2. Bir frazeologik birlikdan ikkinchi frazeologik birlik o'sib chiqib voqe bo'ladi.

Omofrazemalarning bunday yo'l bilan paydo bo'lishi uch xil:

1) Mavjud frazeologik birlikning ma'no taraqqiyoti natijasida yabgi frazeologik birlik paydo bo'ladi. Bu hodisa frazeologik polisemiyaga o'xshaydi. Farq shundaki, hozirgi holatida bu ikki omofrazema anglatgan ma'nolarni bir frazeologik birlikning ma'nolari sifatida tal qin qilib bo'lmaydi, bu lug'aviy ma'nolar bir ma'no zanjiriga birlashmaydi. Masalan, joni bor I frazeologik birligi

jonlilarga nisbatan, birinchi navbatda odamga nisbatan ishlatiladi (“hali tirik” ma’nosini anglatadi). Bu frazeologik birlikni jonlilardan *gap*, *so’z* kabi mavhum tushuncha nomlariga ko’chirish bilan tamoman yangicha ma’no (“asosga ega”, “zamidra haqiqat bor”, “bejiz emas”) vujudga kelgan. Bu ikki frazeologik ma’noni bir frazeologik birlikning ikki ma’nosi deb bo’lmaydi, chunki bu lug’aviy ma’nolar orasida bog’lanish yoq. Shu sababli keying ma’noni alohida frazeologik birlik (joni bor II) deb qarash lozim (keyingi frazeologik birlik ko’pincha jon bor shaklida ishlatiladi).

2) Mavjud frazeologik birlikning biror grammatik asosida paydo bo’ladi. Bunda frazeologik birlikning Grammatik shakllaridan biri ma’noda alohidalik kasb etadi, shu asosda mustaqil frazeologik birlik darajasiga o’sib boradi. Xuddi shunday shaklda ishlatilish avvalgi frazeologik birlikda ham saqlanganligi sababli omonimiya paydo bo’ladi.

Leksemalarning ayrim Grammatik shaklida qotib ravishlashuvi faol jarayon bo’lib, hozirgi o’zbek tilida ham ravish turkumining boyish manbalaridan biri. Bunday, usul bilan ravishlashuv frazeologik birliklarda ham anchagina uchraydi. Masalan, boshini yeb I shakli boshini ye frazeologik birligining juda ko’p Grammatik shakllaridan biri bo’lib, bu shaklida ham boshqa shakllardagi kabi lug’aviy ma’noni aynan anglatadi (“yo’q qilib”, “halok qilib”). Shu frazeologik birlikdan o’sib boshini yeb II frazeologik birligi esa xuddi shu shaklda paydo bo’lgan. Avvalgi lug’aviy ma’no bilan bog’lanmaydigan yangi lug’aviy ma’noning (“juda ko’p hosil qilib”) yuzaga kelishi yangi frazeologik birlikning vujudga kelishiga, bu esa o’z navbatida omonimiyaning paydo bo’lishiga olib kelgan.

3) Mavjud frazeologik birlik yangicha sintaktik vazifaga xoslanish, shu tufayli yangi ma’no anglatish voqe bo’ladi, natijada boshqa – boshqa turkumga mansub ikki frazeologik birlik haqida gapirish lozim bo’ladi. Masalan, turgan gap I va turgan gap II frazeologik birliklaridan birinchisi kesim vazifasiga xoslangan bo’lib, “aniq”, “shak – shubhasiz” kabi ma’noni anglatadi. Shu frazeologik birlik keyinchalik kirish bo’lak vazifasida ham ishlatilib, alohida bir lug’aviy ma’no

(“albatta”, “shubhasiz” kabi modal ma’no) kashf etgan, modal frazeologik birlik paydo bo’lgan. Bu turdagi omofrazemalar juda oz.

Demak, frazeologik birliklar ma’no turlari jihatidan o’zbek tilida ikki turga va ingliz tilida uch turga ajratiladi. Shuningdek, frazeologik birliklar asosan belgi va harakat ifodalagani uchun ular grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so’z turkumlariga ham mansub. Bu frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari natijasida ularda sinonimiya, antonimiya, omonimiya va polisemiya hodisalari kuzatilar ekan.

II—bob: Ingliz va O’zbek tillarida frazeologik birliklarida polisemiyaning ifodalanishi.

II.1. Ingliz va O'zbek tillarida polisemiya

Tilning leksik birliklari , shuningdek, ko'p ma'noli so'zlarni o'rganuvchi sohasiga leksikologiya deyiladi.

So'zning ma'no tarkibi va u bilan bog'liq hodisalarni o'rganuvchi leksikologiya bo'limi semasiologiya deyiladi. So'zlarning ayrimlari faqat bir leksik ma'nodan, ayrimlari ikki va undan ortiq leksik ma'nodan tarkib topadi. Shu xususiyatiga ko'ra ular ikkiga bo'linadi [24, 88].

- 1) so'zlarning faqat bir leksik ma'noga ega bo'lishi ya'ni monosemiya
- 2) so'zlarning ikki va undan ortiq leksik ma'noga ega bo'lishi, ya'ni polisemiya.

Barcha til birliklari monosemantik va polisemantik deb ikki guruhga guruhlanadi, bulardan polisemantik til birliklari alohida diqqat bilan o'rganishni talab qiladi.

Polisemiya lug'aviy birliklarga ham, grammatik birliklarga ham xos. Shunga ko'ra polisemiya ikki xil:

I. Lug'aviy polisemiya — lug'aviy birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: bosh 1- “kishi organizmining bo'yindan yuqori qismi”; bosh 2- “miya” (uning boshi yaxshi ishlaydi) kabi.

II. Grammatik polisemiya — Grammatik birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: - ga 1-o'zi qo'shilgan negiz harakat yo'naltirilgan predmet ekanini bildiradi: *Ukamga tikildim*; - ga 2- o'zi qo'shilgan negiz harakatni bajarishda maqsad bo'lgan predmet ekanini bildiradi: *Ukamga oldim* kabi.

Lug'aviy polisemiya ikki turli:

1. Leksik polisemiya- so'zlardagi ko'p ma'nolilik hodisasi.
2. Frazologik polisemiya- iboralardagi ko'p ma'nolilik hodisasi: *ko'zga ko'rinmoq* 1-“tanilmoq”, *ko'zga ko'rinmoq* 2- “o'ziga e'tiborni jalb qiladigan bo'lmoq” kabi.

Monosemiya yangi yaratilgan so'zning hamda yangi o'zlashtirilgan so'zning boshlang'ich ishlatilish davriga xos deb qaraladi. Terminlar ham odatda monosemantik bo'ladi. Monosemantik so'zlar qatoriga shartli ravishda atoqli otlar ham kiritiladi.

Har bir soʻz oʻz yaratilishiga koʻra monosemantik boʻladi: biror predmet, belgi, munosabatning nomi sifatida yuzaga keladi. Keyinchalik u boshqa hodisalarga ham nom boʻlib xizmat qiladi, shu yoʻl bilan oʻz maʼnosi oʻzgartiradi, taraqqiy ettiradi. Natijada soʻz maʼnosida turli tuman siljishlar voqe boʻladi, shuning oqibatlaridan biri sifatida monosemantik soʻz polisemantik soʻzga aylanadi.

Leksik polisemiya – koʻp qirrali va murakkab hodisa. Deyarli har bir soʻzning leksik maʼno taraqqiyoti konkret, individual yondashishni talab qiladi. Shu sababli leksik maʼnolarni aniqlash va sistemalash juda qiyin. Soʻzning koʻp maʼnoliligi haqida aytiladigan umumiy fikrlar odatda soʻzning leksik maʼno taraqqiyoti haqida tasavvur hosil etish uchungina xizmat qiladi.

Polisemantik soʻzlar leksik maʼnolarining boshqa turkum vazifasini bajara olish yoki bajara olmaslik xususiyatiga koʻra ikki turga boʻlinadi:

- 1) sodda polisemantik soʻzlar
- 2) murakkab polisemantik soʻzlar

Sodda polisemantik soʻzlarning leksik maʼnolari faqat oʻzi oid boʻlgan turkum vazifasini bajaradi. Ular oʻzbek tilidagi feʼl, olmosh turkumiga oid barcha polisemantik soʻzlarni oʻz ichiga oladi. Yaʼni feʼl va olmosh turkumiga oid soʻzlarning leksik maʼnolari boshqa turkum vazifasini bajarmaydi. Bu fikrni feʼl turkumiga oid polisemantik soʻzlarda talqin qilinsa, tushunish uncha qiyin emas. Chunki feʼl turkumiga oid soʻzlar umuman turkiy tillarda oʻziga xos shaklga ega boʻlib, ular sof holatda boshqa turkum shakllarini qabul qilmaydi, shuningdek boshqa turkum vazifasini bajarmaydi. Shuni taʼkidlash joizki, feʼl hech qanday xoslangan shaklga kirmagan, sof feʼl holatida biror leksik maʼnosi asosida boshqa turkum vazifasini oʻtamaydi. Agar u feʼlning xoslangan shakllaridan biri: yo sifatdosh, yo ravishdosh, yo harakat nomi shakliga kirsam, boshqa turkum vazifasiga oʻtishi muqarrar. Har holda bu feʼlning xoslangan shakliga xosdir. Olmosh turkumiga oid soʻzlarning leksik maʼnolari boshqa turkum vazifasida kelmasligini boshqacha izohlash kerak. Chunki olmosh turkumiga oid soʻzning oʻzi boshqa soʻz turkumining oʻrnida almashib kelgan boʻladi. Uning tarkibidagi leksik maʼnolar turlicha turkumga oid vazifani bajarib kelayotgan

bo'lishi mumkin. Ammo ular o'zining mavhumligicha va tushunchalarni to'g'ridan-to'g'ri ifoda etmay, unga ishora qilayotganligi yoki uni ko'rsatayotganligi xususiyati bilan olmosh turkumiga xos bo'lib qolaveradi.

Ko'rinib turibdiki, fe'l va olmosh turkunidagi barcha polisemantik so'zlar sodda polisemantik so'zlardir.

Murakkab polisemantik so'zlar sifat, son va ot turkumiga oid so'zlarda kuzatiladi. Sifat va ravish turkumiga oid polisemantik so'zlar ichida sodda polisemantik so'zlar deyarli uchramaydi. Chunki bu ikki turkumga oid so'zlar deyarli holda bir belgi bildirib, ular o'z vazifalarini o'zaro almashib keladi.

Son turkumiga oid so'zlar nutqda deyarli sifat turkumiga xos vazifa bajarib keladi. Hosila ma'nolari ham deyarli sifat turkumiga xos bo'ladi. Ular polisemantik so'zlar bo'lar ekan, faqat polifunksional holatda kuzatiladi.

Ot turkumiga oid so'zlar ichida sodda polisemantik so'zlar ham, murakkab polisemantik so'zlar ham birday uchraydi. Bu albatta, yasama otlarning yasovchi affikslari xarakteri bilan bog'liq. Masalan, -(i)m, -(i)ch, iston kabi affikslar bilan yasalgan otlar boshqa turkum vazifasida qo'llanmaydi. Ular hamma vaqt sodda polisemantik so'z bo'lib qolaveradi. Ot turkumi uchun sodda polisemantik so'zlar qanday holatda bo'lsa, murakkab polisemantik so'zlar ham shunday holatga ega.

Ingliz tilida ham polisemiya hodisasi keng qamrovli hodisa bo'lib, unga ikki jihatdan yondashiladi: diaxron va sinxron.

So'zning semantik tarkibidagi o'zgarish diaxron jihatdan o'rganilishini talab etadi. Diaxron jihatdan polisemiya so'z o'zining boshlang'ich ma'nosini saqlab qolishi va bir vaqtning o'zida bir yoki boshqa yangi ma'nolarga ega bo'lishiga ishora qiladi.

Ingliz tilidagi polisemantik xususiyatga ega bo'lgan "table" so'zini diaxron semantik jihatdan tahlil qilinganda uning boshlang'ich ma'nosi (a flat slab of stone or wood) qadimgi ingliz tilidagi ma'nosiga teng ekanligi ma'lum bo'ldi, qolgan ma'nolari esa hosila ma'nolar bo'lib, ular boshlang'ich ma'nodan kelib chiqqan.

Polisemiyaga sinxron jihatdan yondashish deganda ma'lum bir tarixiy davrda bir so'zning turli xil ma'nolarining birgalikda paydo bo'lishi va bu ma'nolarning so'zning semantik tarkibida belgilanishidir.

Ma'lumki, til birliklari orasida so'z eng ko'p o'zgarishlarga moyil birlik bo'lib hisoblanadi, vaqt o'tishi bilan uning ma'nolari rivojlanib, natijada bosh ma'no atrofida yangi hosila ma'nolar yuzaga keladi. Deyarli har bir so'z o'zining yasama ma'nolariga ega, ba'zi hollarda hosila ma'nolar yuzaga kelishi natijasida bosh ma'no o'z ahamiyatini yo'qotadi

So'z ma'nolarining o'zgarishi qizg'in muzokaralarga sabab bo'lgan mavzu bo'lib, juda ko'p tilshunoslarni o'ziga jalb qilgan. So'z ma'nolari muhokama qilinar ekan, so'zning doimiy, o'zgarmas hamda o'zgaruvchan ma'nolari deb nomlangan qarama qarshi tushunchalar yuzaga keladi. Ba'zi ma'nolar doimiyligi, o'zgarmasligi bilan xarakterlansa, ba'zi ma'nolar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi; ular faqat ba'zi kontekstlardagina paydo bo'ladi va bu ma'no lug'atlarda qayd etilmaydi. Bosh hamda hosila ma'nolar nisbatan o'zgarmasligi bilan farqlanadi va shuning uchun ham ular so'zning semantik tarkibini tashkil qilib, lug'atlarda qayd etiladi.

Ko'p ma'nolilik muammosi leksikologiyaning eng ko'p muhokamaga sabab bo'lgan muammolaridan biridir. Ba'zan ko'p ma'noli so'zning hosila ma'nosidan alohida, mustaqil so'zni farqlashning imkoni bo'lmaydi, ya'ni so'zning hosila ma'nosi bilan bosh ma'no o'rtasidagi semantik aloqa uzilgan va natijada u o'zi hosil bo'lgan so'zga nisbatan omonimga aylangan.

Polisemiya leksikologiyaning alohida kategoriyalaridan biridir. Har bir polisemantik so'z o'ziga xos stilistik xususiyatga ega va uning tarkibidagi leksik ma'nolarni tahlil qilish ko'plab izlanishlar va kuzatishlarni talab qiladi.

Ma'lumki, polisemantik so'zlarning ma'nosi yuzaga chiqishi uchun kontekst muhim ahamiyatga ega. Chunki polisemantik so'zlar bir qancha leksik ma'nolarga ega bo'lib, kontekstda esa u faqat bir ma'nosi bilan qatnashadi. Ingliz tilida o'zbek tilidan farqli ravishda polisemantik so'zning ma'nosini aniqlashtiruvchi kontekstlar uchga bo'linadi:

- 1) Leksik kontekst;
- 2) Grammatik kontekst;
- 3) Ekstralingvistik kontekst;

Leksik kontekstda polisemantik soʻz birikib kelgan leksik guruhlar asosiy oʻrinni egallaydi. Buning uchun *heavy* polisemantik soʻzini tahlil qilsak. Maʼlumki, *heavy* soʻzining bosh maʼnosi *vazni ogʻir*. Ammo agarda u tabiat hodisalarini anglatuvchi leksik guruh bilan ishlatilsa, bu soʻzning “kuchli” maʼnosi yuzaga keladi: *heavy wind, heavy storm* (kuchli shamol, kuchli boʻron). Yoki *heavy industry, heavy artillery* kabi birikmalarda “ogʻir” maʼnosi yuzaga keladi (ogʻir sanoat, ogʻir artilleriya).

Grammatik kontekstda esa matnning yoki kontekstning grammatik qurilishi polisemantik soʻzning maʼnosini aniqlashga yordam beradi. Masalan, *make* soʻzining bosh maʼnosi *qurmoq*. Ammo uning *undamoq, majburlamoq* maʼnosi faqatgina / to make + ega + infinitiv / grammatik qurilmasidagina yuzaga keladi. Masalan, *to make smb laugh, work* (biror kishini kuldirmoq, ishlatmoq). Yoki bu soʻzning *boʻlib chiqmoq* maʼnosi faqatgina / to make + sifat +ot / grammatik qurilishida yuzaga keladi. Masalan, *to make a good wife, a devoted teacher* (yaxshi rafiq, fidoyi oʻqituvchi boʻlib chiqmoq).

Bundan tashqari, ingliz tilida yana ekstralingvistik yoki situatsional kontekst ham mavjud. Baʼzan polisemantik soʻzning maʼnosi leksik kontekstda ham, grammatik kontekstda ham maʼlum boʻlmaydi. Bu holatda biz faqatgina oʻsha gapirilayotgan vaziyatdan polisemantik soʻzning maʼnosini aniqlashimiz mumkin. Masalan, *ring* polisemantik soʻzining maʼnosi *to give smb a ring* birikmasida leksik yoki grammatik kontekst emas, balki situatsional kontekst orqali aniqlanadi. *Ring* polisemantik soʻzi *aylana halqa* va *telefondagi qoʻngʻiroq* leksik maʼnolariga ega boʻlib, *to give smb a ring* birikmasi ham *biror kishiga halqa bermoq* maʼnosini, ham *biror kishiga qoʻngʻiroq qilmoq* maʼnosini anglatadi. Birikmaning aniq maʼnosi faqat gapirilayotgan vaziyatga qarab maʼlum boʻladi. Bu ekstralingvistik yoki situatsional kontekstning muhim vazifasi boʻlib hisoblanadi.

Reja polisemiya hodisasiga bag'ishlanar ekan, ingliz va o'zbek tillaridagi polisemik so'zlarning berilishini so'zlar misolida ko'rsak:

heavy

- 1) kuchli; *heavy rain* (kuchli yomg'ir); *heavy wind* (kuchli shamol);
- 2) og'ir; *heavy industry* (og'ir sanoat); *heavy artillery* (og'ir artilleriya);
- 3) vazni katta; *heavy weight* (og'ir vazn); *heavy table* (og'ir stol);

Kuch

- 1) kuch, harakt uchun qobiliyat;
- 2) davlat, hokimiyat;
- 3) jismoniy kuch;
- 4) aqliy kuch;
- 5) mexanik energiya, quvvat;

II.2 Ingliz va O'zbek tillari frazeologik birliklarida polisemiyaning kuzatilishi

Lug'aviy ma'noning taraqqiy etishi frazeologik birliklarga ham xos. Hozirgi o'zbek va ingliz frazeologik birliklarida lug'aviy ma'no asosan metafora yo'li bilan ko'chirish natijasida taraqqiy etgan. Masalan, *ko'ngliga tegmoq* frazeologik birligi asli biror ovqat tez-tez iste'mol qilinishi tufayli "yoqmay qolmoq" ma'nosini anglatadi [26, 137]. Bu frazeologik birlik keyinchalik ovqatdan boshqa narsalarga, shuningdek, kishilarga qarata ham ishlatilgan, bunday ko'chirish natijasida bu frazeologik birlikda tabiatiga to'g'ri kelmay qolib, "yoqtirmaslik hissi uyg'ondi" ma'nosi hosil bo'lgan. Yoki ingliz tilidagi *to walk all over somebody* frazeologik birligida ham xuddi shunday qarash mavjud. 1) Mastava ko'ngillaringizga tegib yurgandir. I'm not about to let them walk all over me. 2) Ammo har kuni bir xil narsani takrorlayverish uning ko'ngliga tegdi. We expected Williams to walk all over her.

Bir frazeologik birlikka xos ma'noning taraqqiyoti natijasida frazeologik ma'noning miqdori o'zgaradi. Bir frazeologik ma'no asosida ikkinchi frazeologik ma'noning tug'ilishi ikki xil hodisaga – polisemiyaga yoki omonimiyaga olib keladi.

Frazeologik ma'noning taraqqiyoti bilan tug'ilgan omonimiya juda oz. Bunga misol qilib o'zbek tilida *joni chiqdi I* va *joni chiqdi II* frazeologik birliklarini, ingliz tilida esa *to feel one's oats I* va *to feel one's oats II* frazeologik birliklarini keltirish mumkin: Bo'ridan bir qo'zini ajratib olgan edi. Joni chiqmagan ekan. "Domlaga : "Odam tuproqdan yaratilgan" – desang, ma'qul, agar "Maymundan yaralgan", - desang, joni chiqadi", - derdi. "Gosh, it'll be great to get into harness again" – he said. "I'm feeling my oats already". This Novak... and the people behind Novak, were feeling their oats and talking big. Birinchi misolda kishiga xos bir holatning nomi rang – tus jihatdan bo'ladigan o'xshashlik asosida ikkinchi bir holatga ko'chirilgan: kishi o'lganida badan oqarishib ketadi, xuddi shundat o'zgarish qattiq g'azablanganda ham voqe bo'ladi yoki ingliz tilida berilgan misol ham rang-tus jihatdan bo'ladigan o'xshashlik asosida ikkinchi bir holatga ko'chirilgan: kishi jahli chiqqanda qiziqqon va jo'shqin holatda namoyon bo'ladi, shuning asosida u o'zining qay darajada kuchga ega ekaligini bilib o'zini muhim

deb hisoblaydi . Shu asosda ko'chirish yangi bir frazeologik birlikning tug'ilishiga olib kelgan: joni chiqdi I – “so'nggi marta nafas chiqarmoq” va joni chiqdi II – “nihoyatda qattiq g'azablanmoq”. Ikkinchi frazeologik birlik dastlab joni chiqdi tarzida qo'llangan, shuning o'zidayoq birinchi frazeologik birlikdan farqlanib qolgan: avvalgi frazeologik birlik III shaxs nisbatlovchisi bilan ishlatilsa, keyingi frazeologik birlik nisbatlovchilarning har uch shaxs-son shakllari bilan ishlatiladi. Keyinchalik ikkinchi frazeologik birlikda jonini chiqarmoq varianti paydo bo'lgan va ikkita frazeologik birlikka ajralish yana ham aniq tus olgan [26, 140].

Bir frazeologik birlik zid mazmunli lug'aviy ma'nolarni ham anglatadi. Masalan, *yuragi qinidan chiqayozdi* frazeologik birligi qattiq hayajonlanishni anglatadi, ammo bunday holat tashvishga ham, sevinchga ham bog'lanadi:

1) Qo'rqmayman deb bo'lamaydi, o'g'lim. Shunaqa vaqtda odamning yuragi qinidan chiqib ketadi. 2) Qizning paranjisini ko'rishi bilanoq yigitning yuragi qinidan chiqayozdi. Buni enantiosemiya hodisasiga o'xshatish mumkin.

Frazeologik birliklarning ko'pi monosemantik. Masalan, *bahridan o'tmoq* frazeologik birligi “foydali deb bilgan narsasidan voz kechmoqni”ni, *berdisini aytguncha urib o'ldirmoq* frazeologik birligi “gapirib bo'lguncha kutmay biror narsa demoq”ni, yoki *go over somebody's head* frazeologik birligi “hech narsani tushunmaslik”ni, *get down to brass tacks* frazeologik birligi “muhim masalani muhokama qilishni boshlash” ma'nosini anglatadi.

Polisemantik frazeologik birliklar o'zbek tilida ham anchagina bo'lib, ingliz tilida nisbatan kamroq uchraydi. Polisemantik frazeologik birliklarning ko'pi ikki va uch ma'nolidir. Masalan, *boshi aylandi* frazeologik birligi ikki ma'noni anglatadi: 1) “behud bo'lmoq”, 2) “esankiramoq”; *be living on borrowed time* frazeologik birligi ikki ma'noni anglatadi: 1) “kutilmagan qisqa vaqt ichida yashamoq”, 2) “o'limga yaqin bo'lmoq” kabi. Shuningdek *bosh suqmoq* frazeologik birligi uch ma'noni anglatadi: 1) “gavdasi tashqarida qolib, boshini tiqqan holda qaramoq”, 2) “kirmoq”, 3) “aralashmoq” yoki *to beg the question* frazeologik birligi ham uch ma'noli: 1) “savoldan o'zini olib qochmoq”, 2) “asosiy


savolni o'rtaga tashlamoq yoki uni muhim deb hisoblamoq", 3) "bahsni yoki savolni o'z isbotini topgan deb bilmoq".

Bosh ko'tarmoq frazeologik birligi esa quyidagi to'rt ma'noni anglatadi: 1) "qaramoq", 2) "qilib turgan ishini to'xtatmoq", 3) "qo'zg'almoq", "harakatga kelmoq", 4) "kurashga chog'lanmoq".


Frazeologik polisemiya deganda frazeologik birlikning o'zi va undan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi tushuniladi. O'zaro shaklan o'xshash erkin bog'lanmadan va frazeologik birlikdan anglashiladigan ma'nolar bir nuqtaga birlashtirib, polisemiya deb qaralmaydi. Chunki bular har xil hodisalardir: erkin bog'lanma – nutq birligi, frazeologik birlik – til birligi. Masalan, aravani quruq olib qochmoq yoki grasp at straws erkin birikmasi nutqda tuzib ishlatiladi, shu bilan birga tilda aravani quruq olib qochmoq yoki grasp at straws frazeologik birliklari ham mavjud. Birinchisidan to'g'ri ma'no, ikkinchisidan esa ko'chma ma'no ("uddasidan chiqa olmaydigan ish yoki narsa haqida ortiq darajada gapirmoq" yoki "hech qanday yo'l qolmaganda, qiyin vaziyatda umid beradigan yoki yordam beradigan biror narsa qilmoq va izlanmoq") anglashiladi. Bu ma'nolarni bir til birligi emas, balki ikki har xil til hodisalari anglatgani sababli polisemiya yuzaga kelmaydi. Yuqoridagicha munosabat (erkin bog'lanma bilan frazeologik birlikning shaklan teng kelish hodisasi) omonimlik deb yuritiladi.

Frazeologik birlikning lug'aviy ma'nosi birdan ortiq bo'lsa, xuddi leksemalarda qilinganidek, bosh ma'no va hosila ma'no belgilanadi. Masalan, jar solmoq frazeologik birligi "jarchi vositasida eshittirmoq" (bu eski ma'noga aylangan), "keragidan ortiq darajada bo'rttirib xabar tarqatmoq" ma'nolarini anglatadi. Shuningdek, ingliz tilidagi to make a getaway frazeologik birligi " jinoyat sodir etgandan so'ng qochish", va " zerikarli siyosiy tuzumdan qochish" ma'nolarini anglatadi. Birinchisi – bosh ma'no, ikkinchisi – shundan o'sib chiqqan hosila ma'no [16, 109].

Bino qo'ymoq frazeologik birligi uch ma'noli: 1) "ortiqcha baho bermoq", 2) "qiyofasiga alohida e'tibor bermoq", 3) "e'tiqod bilan qaramoq". Bu frazeologik birlikning ikkinchi va uchinchi ma'nolari birinchi ma'nosidan o'sib chiqqan:



Tili chiqdi frazeologik birligida esa frazeologik ma'nolarning bog'lanishi o'zgacha: 1) "nutqqa ega bo'lmoq", 2) "indamay yurgan kishi gapiradigan bo'lib qolmoq", 3) "aytishadigan bo'lmoq". Bu ma'nolarning bog'lanishi:



Shuningdek, ingliz tilidagi let fly frazeologik birligi uch ma'noli : 1) "jahli chiqmoq", 2) "tosh otmoq", 3) "erk bermoq". Bu frazeologik birlikning ikkinchi va uchinchi ma'nolari birinchi ma'nosidan o'sib chiqqan.

Leksemada bosh leksik ma'no, odatda, to'g'ri ma'no bo'ladi. Frazeologik birlikda esa bosh frazeologik ma'no ko'chma ma'no bo'ladi. Chunki frazeologik birlikning bosh ma'nosi ham, hosila ma'no kabi, ustama ko'chma ma'no tarzida gavdalanadi, ma'lum obrazga asoslanadi. Demak, frazeologik birlikning tabiati to'g'ri ma'noni istisno qilib qo'yadi.

Polisemantik frazeologik birlikda lug'aviy ma'noni va uning taraqqiyotini semik tahlil metodikasi bilan o'rganish bu hodisalarni ravshanroq tasavvur qilish imkonini beradi [26, 143]. Masalan, *ko'ngli aynidi* – ikki ma'noli frazeologik birlik. Bu frazeologik birlikning birinchi ma'nosi uchun semalarni quyidagicha belgilash mumkin: fe'l bo'lgani sababli, avvalo, "ta'sir ko'rsatmoq" semasini belgilaymiz. Ta'sir ko'rsatish "ijobiy yoki salbiy" bo'ladi. Bu ta'sir kishi "organizm"ida namoyon bo'ladi. Ta'sir etuvchi – "jism", aniqrog'i, "ovqat", shu sababli "organizm"ni aniqroq qilib, "ovqatlanish a'zolari deb belgilanadi. Ovqatlanish a'zolariga ovqatning ta'siri "jismoniy" bo'ladi. Yuqorida ajratilgan semalar yig'imi shunday tartiblanadi: "ovqatlanish a'zolari" + "jismoniy" + "salbiy" + "ta'sir ko'rsatmoq". Ana shu semalar asosida bu frazeologik ma'noni "organizmi qabul qilmagani tufayli behuzur bo'lmoq" deb ta'riflaymiz.

Ko'ngli aynidi frazeologik birligining ikkinchi ma'nosi birinchi ma'nosidan o'sib chiqqan. Yangi ma'no bu frazeologik birlikni ovqatdan boshqa narsaga ko'chirib ishlatish natijasida yuzaga kelgan. Bunday ko'chirish tufayli birinchi ma'no tarkibidagi “salbiy”, “ta'sir ko'rsatmoq” semalari saqlanadi, ovqatdan boshqa qarata ishlatilishi sababli “ovqatlanish a'zolari” “hissiyot” semasiga almashadi, shui bilan birga, “jismoniy” semasi ham “ruhiy” semasiga almashadi. Natijada shunday semalar yig'imi voqe bo'ladi: “hissiyot” + “ruhiy” + “salbiy” + “ta'sir ko'rsatmoq”. Ana shu semalar yig'imi asosida bu frazeologik ma'noni “tabiatiga yoqmagani tufayli ijirg'anmoq” deb ta'riflaymiz. Ko'rinadiki, bu frazeologik ma'no taraqqiyoti konkretan mavhumga tomon yo'nalishda voqe bo'lgan.

Frazeologik ma'nolar ham, xuddi leksik ma'nolarda bo'lganidek, o'ziga xos kontekstda namoyon bo'ladi. Polisemantik frazeologik birlikning ma'nolari o'zaro, lug'aviy ma'nosidan tashqari, leksik kontekstida, grammatik tabiatida farqlanib turishi mumkin. Masalan, boy bermoq frazeologik birligi lug'aviy uch ma'noni anglatadi: 1) “yutqizmoq”, 2) “yo'qotmoq”, “behuda, befoyda o'tkazmoq”, 3) “oshkor qilmoq”. Har uch ma'no turlicha leksik kontekstda namoyon bo'ladi: birinchisida qimorni, garovni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida vaqtni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa sirni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi.

Misollar: 1. Ukaning hech haqqi yo'q, hovlidan bo'ladigan tegishini ham sotib, qimorga boy bergan! 2. Shunday qilib, bahorda boy bergan o'n besh kunni ham qaytarib oldik. 3. Kulgiga to'lib turganlar endi sir boy berib qo'ygan yigitchaning ustidan xaxolashdi. Ko'rinadiki, bu frazeologik birlikning lug'aviy ma'nolarida leksik kontekst farqli, ammo grammatik tabiat bir xil.

Mana bu frazeologik birlikning lug'aviy ma'nolarida leksik kontekst ham, grammatik tabiat ham farqli: *ketiga tushmoq*:

1) “zimdan yurib butun xatti-harakatni ta'qib etmoq”, 2) “manfaatdor bo'lgani holda berilib harakat qilmoq”.

Har ikki ma'nosida harakatni kishi bajaradi, lekin harakat qaratilgan predmet boshqa-boshqa bo'ladi: birinchisida kishiga (kimning), ikkinchisida esa narsaga

(nimaning) qaratiladi. Shu sababli bu ma'nolarning leksik konteksti ham, grammatik tabiati ham farq qiladi. Qaratqich kelishigida kishini bildiruvchi leksemaning kelishi birinchi ma'noda har uch shaxs son nisbatlovchisini ishlatishga yo'l ochadi; shunday vazifada narsani anglatuvchi leksemaning kelishi esa faqat III shaxs nisbatlovchisining qatnashuviga sabab bo'ladi. Natijada bu ikki frazeologik ma'noning grammatik tabiati farqlanib qoladi. Birinchi ma'nosida *ketidan tushdim, ketidan tushding, ketidan tushdi, ketingdan tushdim, ketingdan tushdi, ketimdan tushding, ketimdan tushdi* kabi shakllarda ishlatilsa, ikkinchi ma'nosida shularga muqobil shakllardan uchtasidangina keladi: *ketidan tushdim, ketidan tushding, ketidan tushdi*.

Mana bu frazeologik birlikning lug'aviy ma'nolarida grammatik tabiat boshqacharoq: haddidan oshmoq; haddidan oshdi. 1) "O'ziga ortiqcha erk berib yubormoq", 2) "ortiq darajada kuchayib, zo'rayib ketmoq".

Bu frazeologik birlikning birinchi ma'nosida kishiga xos harakatni, ikkinchi ma'nosida esa narsaga xos harakatni bildiradi, shunga ko'ra har xil leksik kontekstda oydinlashadi. Ayni vaqtda grammatik tabiat ham har xil bo'ladi: birinchi ma'nosida bu frazeologik birlik har uch shaxs-sonda tuslanadi ham, nisbatlanadi ham. Ikkinchi ma'nosida esa faqat III shaxs tuslovchisi va nisbatlovchisi bilan ishlatiladi: *haddimdan oshdim, haddingdan oshding* kabi.

Polisemantik frazeologik birlikda grammatik tabiatning boshqa bir turi – ma'nolariga ko'ra sintaktik xoslanish ham uchraydi. Masalan, katta gap frazeologik birligi birinchi ma'nosida ("diqqatga sazovor") gap bo'lagi ya'ni kesim sifatida bo'lib keladi, ikkinchi ma'nosida esa ("qanoatlanishga yetarli") shart ergash gapga bosh gap sifatida keladi: 1. "Hazillashish kerak, - dedi u Bektemirga,- qon yurishadi. Frontda hazil katta gap" 2. O'qishni yaxshi eplasam ham, katta gap.

II.3. Ingliz va O'zbek tillarida frazeologik polisemiyaning o'ziga xos xususiyatlari va ularning qiyosiy tipologik tahlili

Ma'lumki, frazeologik birliklar har bir tilning lug'at boyligini tashkil etuvchi til birligi hisoblanadi va ular til birligi sifatida nutqqacha tayyor holda mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular boshqa til birliklari singari semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda sinonimiya, antonimiya, omonimiya, paronimiya va polisemiya kabi hodisalarga uchraydi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda polisemiya hodisasini qiyosiy –tipologik tahlil qilish quyidagi o'xshash va farqli jihatlarning aniqlanishiga olib keldi:

O'zbek tilida ingliz tilidan farqli ravishda frazeologik birliklarning ikki turi borligi ko'rsatildi:

- 1) frazeologik butunlik;
- 2) frazeologik chatishma;

Frazeologik butunlik – ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ifodalaydigan frazeologik birliklar hisoblanadi: *belni bog'lamoq, yog' tushsa yalagudek;*

Frazeologik chatishma – ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazeologik birliklar hisoblanadi: *xamir uchidan patir, oyog'i olti qo'li yetti bo'lib;*

Ingliz tilida ham frazeologik birliklar ma'no jihatiga ko'ra turlarga ajratilgan, ammo o'zbek tilidan farqli ravishda ingliz tilida frazeologik birliklarning uch turi borligi ko'rsatilgan:

- 1) frazeologik birlik (phraseological unity);
- 2) frazeologik chatishma (phraseological fusions);
- 3) frazeologik qo'shilma (phraseological combinations or collocations);

Frazeologik birliklarning bu ma'no turlarini o'zbek tili bilan qiyoslaganda frazeologik birliklar (phraseological unities) va frazeologik chatishmalar (phraseological fusions) o'zbek tilida ham o'z aksini topgan. Lekin frazeologik qo'shilmalar (phraseological combinations or collocations) o'zbek tilida ma'no guruhlari orasiga kiritilmagan bo'lsada, ular ba'zida frazeologik butunliklar

ma'noviy guruhiga ham kiritiladi. Bundan tashqari, ularning ba'zilari erkin bog'lanmalarga ham kiritiladi. Masalan, *to gain victory, to attain success, to make a report* kabilar ingliz tilida frazeologik birliklarning ma'no turlariga ko'ra guruhlariga kiritilsa, ular o'zbek tilida erkin bog'lanmalarga kiritiladi.

Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o'rganish orqali ularda frazeologik polisemiya, frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya va frazeologik paronimiya kabi hodisalari o'zbek tilida keng tadqiq qilingan. Ingliz tilida esa bu hodisalarning o'rganilishi nisbatan umumiy leksikologiya tarkibida o'rganilib, ular so'zlarga nisbatan kamroq uchraydi. Shuningdek, sinonimiya, antonimiya kabi hodisalarni o'rganishda polisemiya hodisasining katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rildi. Sinonimik va antonimik munosabatlar polisemantik frazeologik birliklarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi.

Ayni bir ma'nolilik monosemantik frazeologik birliklar o'rtasida belgilanadi. Agar sinonimik yoki antonimik munosabatda polisemantik frazeologik birlik qatnashsa, frazeologik birlikdan emas, balki konkret frazeologik ma'nodan kelib chiqish lozim. Chunki har bir frazeologik ma'no o'zicha sinonimga yoki antonimga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin. Masalan, *ixlos qo'ymoq* monosemantik frazeologik birligi *bino qo'ymoq* polisemantik frazeologik birligining uchinchi ma'nosiga sinonim yoki *to open gate* frazeologik birligi *to give way* polisemantik frazeologik birligining beshinchi ma'nosiga sinonim.

Xuddi sinonimik munosabatda bo'lganidek, antonimik munosabatda ham polisemantik frazeologik birliklarda har bir ma'noga nisbatan alohida belgilanadi. Masalan, *esidan chiqmoq* monosemantik frazeologik birligi *xayoliga kelmoq* polisemantik frazeologik birligining ikkinchi ma'nosiga antonimik munosabatda bo'ladi. Shuningdek, ingliz tilidagi *to be in a high spirits* monosemantik frazeologik birligi *to be all to pieces* polisemantik frazeologik birligining ikkinchi ma'nosiga nisbatan antonimik munosabatda bo'ladi.

Bir frazeologik birlikka xos ma'noning taraqqiyoti natijasida frazeologik ma'noning miqdori o'zgaradi. Bir frazeologik ma'no asosida ikkinchi frazeologik

ma'noning tug'ilishi ikki xil hodisaga – polisemiya yoki omonimiyaga olib keladi. Ammo ma'no taraqqiyoti natijasida yuzaga kelgan frazeologik omonimlar juda oz. Bu esa o'z isbotini *ko'ngil ochmoq, to feel one's oats* kabi frazeologik birliklarda o'z isbotini topgan.

Ma'lumki, polisemiya har bir tilda o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham alohida o'ziga xos xususiyatlarga ega shu bilan birga, ularning farqli jihatlari ham bor.

O'zbek tilida polisemiya ingliz tilidan farqli ravishda ikki turga bo'linadi:

- 1) Grammatik polisemiya;
- 2) Lug'aviy polisemiya;

Lug'aviy polisemiya – lug'aviy birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi, ya'ni mustaqil so'zlardagi ko'p ma'nolilik hodisasi. Masalan, *joy, qo'l* so'zlaridagi polisemiya hodisasi. Ingliz tilida ham bu hodisa mavjud bo'lsada, ammo o'zbek tilidagidek muayyan guruhga ajratilmagan.

Grammatik polisemiya – grammatik birliklardagi ko'p ma'nolilik hodisasi. Masalan, *-ga* qo'shimchasi birinchidan yo'nalganlik, ikkinchidan atalganlik ma'nolarini bildiradi: *Ukamga tikildim. Ukamga oldim.*

Ingliz tilida ham bu hodisa mavjud bo'lib, u faqatgina qo'shimchalardagi ko'p ma'nolilik bo'lib hisoblanadi. Masalan, *-er* suffiksi kasb egasi (*teacher, painter*), jihoz, asbob (*boiler, eraser*) larni anglatuvchi so'zlarga qo'shib polisemantik affiksga aylangan.

O'zbek tilida polisemantik so'zlar leksik ma'nolarining boshqa turkum vazifasini bajara olish yoki bajara olmaslik xususiyatiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- sodda polisemantik so'zlar;
- murakkab polisemantik so'zlar;

Shuningdek, polisemantik so'zlarning ma'nosi yuzaga chiqishi uchun kontekst muhim ahamiyatga ega. Chunki polisemantik so'zlar bir qancha leksik ma'nolarga ega bo'lib, kontekstda esa u faqat bir ma'nosi bilan

qatnashadi. Ingliz tilida o'zbek tilidan farqli ravishda polisemantik so'zning ma'nosini aniqlashtiruvchi kontekstlar uchga bo'linadi:

- 1) Leksik kontekst;
- 2) Grammatik kontekst;
- 3) Ekstralingvistik kontekst;

Bir frazeologik birlikka xos ma'noning taraqqiyoti natijasida frazeologik ma'noning miqdori o'zgaradi. Bir frazeologik ma'no asosida ikkinchi frazeologik ma'noning tug'ilishi ikki xil hodisaga – polisemiyaga yoki omonimiyaga olib keladi.

Frazeologik polisemiya deganda frazeologik birlikning o'zi ikki va undan ortiq lug'aviy ma'no anglatishi tushuniladi.

Ma'lumki, frazeologik polisemiya hodisasi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlarini o'rgangan holda borligi aniqlangan. O'zbek tilida frazeologik birliklarning polisemiyaga uchrashi ya'ni ularning ma'no taraqqiyoti natijasida ko'p ma'noga ega bo'lishi ingliz tilidagiga nisbatan ko'proq natijalarga ega.

Frazeologik birlikning lug'aviy ma'nosi birdan ortiq bo'lsa, xuddi leksemalarda qilinganidek, bosh ma'no va hosila ma'no belgilanadi. Masalan, jar solmoq frazeologik birligi "jarchi vositasida eshittirmoq" (bu eski ma'noga aylangan), "keragidan ortiq darajada bo'rttirib xabar tarqatmoq" ma'nolarini anglatadi.

Leksemada bosh leksik ma'no, odatda, to'g'ri ma'no bo'ladi. Frazeologik birlikda esa bosh frazeologik ma'no ko'chma ma'no bo'ladi. Chunki frazeologik birlikning bosh ma'nosi ham, hosila ma'no kabi, ustama ko'chma ma'no tarzida gavdalanadi, ma'lum obrazga asoslanadi. Demak, frazeologik birlikning tabiati to'g'ri ma'noni istisno qilib qo'yadi [30, 145].

Frazeologik ma'nolar ham, xuddi leksik ma'nolarda bo'lganidek, o'ziga xos kontekstda namoyon bo'ladi. Polisemantik frazeologik birlikning ma'nolari o'zaro, lug'aviy ma'nosidan tashqari, leksik kontekstida, grammatik tabiatida farqlanib turishi mumkin. Masalan, *boy bermoq* frazeologik birligi lug'aviy uch ma'noni anglatadi: 1) "yutqizmoq", 2) "yo'qotmoq", "behuda, befoyda o'tkazmoq", 3) "oshkor qilmoq". Har uch ma'no turlicha leksik kontekstda namoyon bo'ladi:

birinchisida qimorni, garovni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida vaqtni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa sirni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi.

Ingliz tilida ham xuddi shunday frazeologik birliklarning ma'nolari kontekstda namoyon bo'ladi. Masalan, *gain ground* frazeologik birligi uch lug'aviy ma'noni anglatadi: 1) "qurshab olmoq, yoki ega bo'lmoq", 2) "rivojlanmoq", 3) "yoyilmoq". Har uch ma'no leksik kontekstda namoyon bo'ladi: birinchisida siyosatni anglatuvchi leksema bilan, ikkinchisida shaxsiy munosabatlarni anglatuvchi leksema bilan, uchinchisida esa hissiyotni anglatuvchi leksema bilan ishlatiladi. Shu bilan birga ingliz tilida kontekstning ahamiyatga ega ekanligi frazeologik birlik bilan erkin bog'lanma orasida namoyon bo'ladi. Masalan, *to let the cat out of the bag* frazeologik birligi sirni oshkor qilmoq lug'aviy ma'noga ega, ammo bu frazeologik birlik erkin bog'lanma sifatida ham ishlatilishi mumkin. Bu esa frazeologik birlikdan tashqaridagi kontekstda o'z isbotini topadi.

Xulosa qilib aytganda, ikkala tilda ham frazeologik birliklarning va ular o'rtasidagi polisemiya hodisasining o'xshash va farqli jihatlari mavjud. Ammo ikkala tilda ham umumiylik bitta frazeologik polisemiya frazeologik birliklarning bir necha leksik ma'nolarga ega bo'lishidir.

II.4 Ingliz va o'zbek tillaridagi polisemik xususiyatlarga ega bo'lgan frazeologik birliklarning ilovasi

1. Aqli yetadi: 1) idrok qilmoq, bilmoq. Pul topishga aqli yetgan Zebining sarf qilishga ham aqli yetib qolar. Said Ahmad, Qadrdon dalalar. 2) Ishonch hosil qilmoq, ishonmoq. Tilni ham juda yomon biladi. O'z qismini topishga aqlim yetmaydi. Oybek, Quyosh qoraymas.
2. Bino qo'yimoq: 1) ortiqcha baho bermoq: ... kamtarliging o'zingga bino qo'yishga aylanib ketdi. Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli. 2) qiyofasiga alohida e'tibor bermoq: Sho'xliklari kamaydi, gaplari o'zgardi, katta qizlarday astoydil yuvinib – taranib, o'ziga bino qo'yib yuradigan bo'ldi. A. Muxtor, Opa singillar. 3) e'tiqod bilan qaramoq: U o'z kasbiga nihoyatda bino qo'ygan. Said Ahmad, Hukm.
3. Boy bermoq: 1) yutqizmoq: Tilmoch qimorga o'zini urdi. Omadi ketib, hovli – joyni boy berib qaynatasining uyiga ko'chib keldi. Said Ahmad, Hukm. 2) behuda yo'qotmoq: Payt qo'ldan boy berildi. S.Anorboyev, Oqsoy. 3) oshkor qilmoq, bildirib qo'yimoq: ... oxiri uning ham ko'ngli buzildi. Ammo sir boy bermay, meni yupatishga tirishdi. I.Rahim, Olovkor.
4. Bo'yniga olmoq: 1) e'tirof qilmoq: Saidova hamma gapni bo'yniga oldi. H. No'mon, Yoshlikda bergan ko'ngil. 2) biror holatga rozi bo'lmoq, ko'nmoq: Hamon musofirchilikni bo'yningga oldingmi, egardan sal tushgin – da! H. Nazir, Odamning qadri. 3) biror ish bajarishga mas'ul bo'lmoq: Keng jamoatchilik a'zolari tadbirni tashkillashtirishni bo'yinlariga oldilar.
5. Javob bermoq: 1) javob qilmoq: Qizlarning ketma – ket yog'dirgan savollariga mukammal javoblar berib turishardi. Oybek. Oltin vodiyan shabadalar. 2) javoban ish tutmoq: ... o'zini zo'rg'a mudofaa qilar, hujumga hujum bilan javob berishni xayoliga ham keltirmasdi. P. Qodirov, Uch ildiz 3) qondirmoq: So'ng Eshonboyev bu talablarga javob bera olmaganiga dalillar keltirgan edi. P. Qodirov. Uch ildiz 4) javobgarlikni o'z ustiga olmoq: Boshimdan soqit qilib aytib qo'yay, oqibatiga Komiljonning o'zi javobi beradi. I. Rahim, Ixlos. 5) ketishga ruxsat bermoq: Axir Mehriга oldinroq javob beradigan bo'lsa, boshqalarning ko'ngliga kelmaydimi? Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli.

6. Kuni qoldi: 1) biror ishni bajarishda qaram bo'lmoq: Toza qaqqajonlarga kuningiz qolibdi – ku, bolam. Oydin, Yuragida o'ti bor. 2) foydalanishga majbur bo'lmoq: “Hay, ishi nimasi, bolam, kunimiz sening topadigan pulingga qoptimi?!”. A. Muxtor, Qanot juft bo'ladi.
7. Mazasi qochdi: 1) sog'ligi yomonlashdi: Bezgak qurmagur nari – beri oborib, toza mazamni qochirdi. “Mushtum”dan. 2) biror ishni yomonlashdi, inqirozga yuz tutdi: Dalada ishning mazasi qochdi. Said Ahmad, Hukum.
8. So'z bermaslik: 1) boshqalarga imkon bermay, nuqul o'zi gapirmoq: Xolmirza hammani og'ziga qaratib olibdi, hech kimga so'z bermay gap ma'qullamoqda. I. Rahim, Hilola. 2) itoat qilmaslik, o'z bilganicha ish tutmoq: Majlis a'zolari hech kimga so'z bermaydigan Tojiboyning birinchi marta qattiq zarba yeganini ko'rdilar. P. Tursun, O'qituvchi. 3) bahslashuvda yutib chiqishga qodir bo'lmoq: Ammo Egamberdi – mashinaning quli. Tez orada uncha – muncha mexanikka ham so'z bermay qo'yadi u. Oybek, Oltin vodiyan shabadalar.
9. Zo'r bermoq: 1) to'la – to'kis safarbar qilmoq: Traktorchilar bo'ron bilan o'chakishganday kuchlariga zo'r berib ishlardilar. Sh. Rashodov, Bo'rondan kuchli. 2) butun kuch va g'ayratini safarbar qilmoq: Biz zo'r berib ishladik, ammo yana bir –bir yarim haftadan keyin ishimiz tag'in og'irlashadi. R. Fayziy, Cho'lga bahor keldi. 3) biror narsaga boshqalardan ko'ra ortiqroq e'tibor qilmoq: Paxtachilikda chinakam quloch otish uchun endi ilmga zo'r berish kerak. Oybek, Oltin vodiyan shabadalar.
10. Yo'lga solmoq: 1) ketish tomoniga to'g'rilab jo'natmoq: Eshon goh u yoqqa, goh bu yoqqa bosh tortgan qo'ylarni yo'lga solishga urinar edi. Oybek, Oltin vodiyan shabadalar. 2) to'g'ri yo'lga qaytarmoq: Tillaboyev ancha izga tushib qoldi. Aslini olganda uni ham agronom yo'lga soldi. H. No'mon, Yoshlikda bergan ko'ngil. 3) manfaatdor bo'lgani holda biror ishga rag'batlantirmoq: “Seni bu jafolarga kim soldi?” – deb so'radi chol undan. “Bir iblis eshon yo'lga solgandi”. H. Maqsudiy, Bola yo'qotgan kishi. 4) faoliyatini yaxshilamoq: Dastavval ustaxonamizning ishini yo'lga solib berdi. I. Rahim, Hilola.

1. Be living on borrowed time: 1) to still be living after someone was expected to die, but likely to die soon: He's survived his third heart attack, but he knows he's living on borrowed time. 2) to be likely to fail or stop existing soon: The last remaining coal mines are now living on borrowed time.
2. Beg the question: 1) if a statement or situation begs the question, it causes you to ask a particular question: It's all very well talking about extra staff but it rather begs the question of how we're going to pay for them. 2) if something that someone says begs the question, it suggests that something is true which might in fact be false: We're assuming, are we, that Anthony will still be in charge this time next year? That rather begs the question, doesn't it?
3. Cooling – off period: 1) a pause in argument, especially one between a company's management and employees, that gives people time to think calmly, about how to reach an agreement: Talks between staff and management will resume after a two week cooling – off period. 2) a period of time in which you are allowed to change your mind about a contract or agreement that you have signed: a ten day cooling – off period.
4. Gain ground: 1) to make progress or obtain an advantage: The Parliament was slowly, but constantly gaining ground on the prerogative. 2) to obtain: The feeling that after all she had won a sort of victory, retained her property, was every moment gaining ground in her. 3) to become more popular: The case for air – pollution control is gaining ground throughout the country.
5. Make up for lost time: 1) to enjoy experiences as much as possible because you have not experienced them before: He's finally bought a computer and is making up for lost time. 2) to work more quickly or at times when you do not usually work, because you have not been able to do the work before: We're going to have to work harder next week to make up for lost time.
6. In the teeth of something: 1) despite something such as problems or difficulties: The bill was passed in the teeth of strong opposition. 2) against the force of a strong wind: She struggled across the moor in the teeth of gale force winds.

7. Pile on the agony: 1) to make a bad situation much worse for someone: This latest announcement just piles agony for investors. 2) to enjoy making a situation much worse than it is: They see a weakness in a child and they start piling on the agony.
8. Set up camp: 1) if a group of people set up camp somewhere, they put up their tents there and stay there for a while: They found a dry spot and set up camp for the night. 2) to put your possessions or equipment in a particular place so you can live, work, or spend a lot of time there: She set up camp in the kitchen while they painted the bedroom.
9. Try it on: 1) to behave badly in order to see how annoying or unreasonable you can be before someone gets angry: If you are a new teacher, the kids will always try it on. 2) to attempt to get something from someone by behaving dishonestly or tricking them: Don't let her have anything. She's just trying it on.
10. Walk all over somebody: 1) to treat someone badly and make them do what you want without caring about their feelings: I'm not about to let them walk all over me. 2) to defeat someone easily: We expected Williams to walk all over her.

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarda polisemiya hodisasining kuzatilishini qiyosiy – tipologik tahlil qilish quyidagi xulosalarga olib keldi:

1. Ikkala tilda ham frazeologik birliklar semantik xususiyatlari va ma'no turlariga ko'ra guruhlariga ajratilishi ma'lum bo'ldi.
2. O'zbek tilidagi frazeologik birliklar ma'no xususiyatlarga ko'ra ikki turga: frazeologik butunlik va frazeologik chatishma kabi turlariga ajratilsa, ingliz tilida esa uch turga: frazeologik butunlik (phraseological unity), frazeologik chatishma (phraseological fusions), frazeologik qo'shilmalar (phraseological combinations or collocations) kabi turlarga ajratilgan.
3. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari o'rganish orqali ularda frazeologik sinonimiya, frazeologik antonimiya, frazeologik omonimiya, frazeologik paronimiya va frazeologik polisemiya hodisalari borligi aniqlandi.
4. Ma'no turlari jihatidan frazeologik birliklar asosan ikki xil: nomlovchi va ifodalovchi frazeologik birliklar borligi va har ikkala tilda ham tahlil qilinganligi, va ular asosan belgi va harakat ifodalagani uchun grammatik jihatdan belgi yoki harakat bildiruvchi so'z turkumiga mansubligi aniqlandi.
5. Frazeologik birliklarda polisemiya hodisasining kuzatilishi ikkala tilda ham o'rganilib ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy –tipologik tahlili amalga oshirildi.

Xulosa qilib aytganda, har bir tilda frazeologik birliklar o'ziga xos lingvistik xususiyatlarga ega. Ammo barcha tillarda frazeologik birliklar til boyligi bo'lib xizmat qiladi. Polisemantik frazeologik birliklar tilning lug'aviy tarkibini va nutqni boyitishga xizmat qiladi va unga hissiy bo'yoqdorlik ma'nolarini mujassamlashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T., 2008.
2. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T., 1999.
3. Abdullayev F. O'zbek tili leksikasining ba'zi bir masalalariga doir til va adabiyot instituti asarlari. – Tosh.: Fan , 1949.
4. Abduazizov A., Sodiqov A., Bashakov N. Umumiy tilshunoslik T., 1979.
5. Авашани Ю.Ю. Вопросы фразеологии. С., 1977.
6. Авашани Ю.Ю, Эмирова А.М. К семантический структуре фразеологических единиц. С., 1971.
7. Алехина А.И. Семантические группы во фразеологии современного английского языка. М., 1977.
8. Алехина А.И. Фразеологическая единица и слово. М., 1979.
9. Алехина А.И. Идиоматика современного английского языка. М., 1982.
10. Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. Л., 1963.
11. Арнольд И.В. Лексикология современного английского языка. - М., 1969.
12. Buranov D. A practical course in English lexicology. – T., 1990.
13. Вакуров В.Н. Основы стилистики фразеологических единиц. М., 1983.
14. Виноградов В.В. Лексикологии и лексикография. М., 1977.
15. Гаврин С. Г. Вопросы лексики, фразеологии и синтаксиса. Перль, 1974.
16. Ginzburg R.S. A course in modern English lexicology. – М., 1979.
17. Гулямов А.Г. Основные способы словообразования в узбекском языке. – Т., 1955.
18. Гришанова В.Н. К вопросу о критериях разграничения значений полисемичных фразеологических единиц. РЯШ, 1979.
19. Ефимова Н.А. Фразеологическая антропимия в современном английском языке и ее семантические особенности. М., 1978.
20. Кунин А.В. О структурно – семантической классификации фразеологических значений. М., 1979.

21. Кунин А.В. О фразеологической номинации. М., 1972.
22. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. М., 1972.
23. Кунин А.В. English Russian phraseological dictionary. М.,
24. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – В., 1999.
25. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Т., 1978.
26. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Т., 1978.
27. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М., 1973.
28. Смирницкий. Лексикология английского языка. – М., 1956.
29. Sulaymonov M. English lexicology. – В., 2004.
30. Tursunov U, Muxtorov J. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Т., 1975.
31. [www. wikipedia.org](http://www.wikipedia.org).
32. [www. Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
33. www. dissertation.com.
34. www. thefreedictionary.com.
35. www. about.com.